

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI
VAZIRLIGI**

SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

**Zootexniya, hayvonlar genetikasi va
urchitish kafedrası**

**5620600-Zootexniya (tarmoqlar bo'yicha)
5140900-Kasb ta'limi (zootexniya)
bakalavr yo'nalishlari talabalari uchun**

**“QORAMOLCHILIK”
fanidan mustaqil ishlarni bajarishga oid**

USLUBIY KO'RSATMA



Samarqand - 2011

Qoramolchilik fanidan mustaqil ishlarni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma " Zootexniya, hayvonlar genetikasi va urchitish " kafedrasining 2010 yil 30 noyabrdagi № 3-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan.

Ushbu uslubiy ko'rsatma Veterinariya, zootexniya va qorako'lchilik fakulteti zootexniya yo'nalishi bo'yicha uslubiy kengashining № 4-sonli bayoni (21.12.2010 y) bilan chop etishga tavsiya etilgan.

Qoramolchilik fanidan mustaqil ishlarni bajarishga oid uslubiy ko'rsatma Veterinariya, zootexniya va qorako'lchilik fakultetining ilmiy kengashining № 4 yig'ilishida (30.12.2010 y) muhokama qilingan va chop etishga tavsiya etilgan.

Uslubiy ko'rsatma Samarqand qishloq xo'jalik instituti "Markaziy attestasiya va uslubiy kengashi" tomonidan tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan.

Uslubiy ko'rsatma Samarqand qishloq xo'jalik institutining Ilmiy kengashining № 7 - sonli yig'ilishida (28.02.2011 y) tasdiqlangan va chop etishga tavsiya etilgan.

Tuzuvchi: "Zootexniya, hayvonlar genetikasi va urchitish" kafedrasining dosenti vazifasini bajaruvchi, q.x.f., nomzodi

Sh.Q.Amirov

Taqrizchilar:

Samarqand qishloq xo'jalik instituti

"Yaylov chorvachiligi va hayvonlarni oziqlantirish texnologiyasi" kafedrasining mudiri, dosent

Q.Xaydarov

UzQChEITI oziqlantirish va maxsulot ishlab chiqarish bo'limining mudiri, q.x.f.,doktori

N.Boboqulov

"Qoramolchilik" fanidan mustaqil ishlarni bajarishga oid uslubiy ko'rsatma 5620600-Zootexniya (tarmoqlar bo'yicha), 5140900- Kasb ta'limi (zootexniya) ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan.

MUNDARIJA

1. Soʻz boshi.....	3
2. Qoramolchilik fanidan mustaqil ishlarni bajarish tartibi va mezonlari.....	4
3. Mustaqil taʼlim mavzulari va ularni bajarish boʻyicha uslubiy koʻrsatmalar.....	20
4. Ilovalar.....	51
5. Foydalaniladigan adabiyotlar roʻyxati.....	93

SO'Z BOSH

O'zbekistonda chorvachilik qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i bo'lib, respublika iqtisodiyotida yetakchi o'rinni egallaydi. Soha qanchalik taraqqiy etsa, mamlakat aholisining turmush darajasi yaxshilanib, halq xo'jaligining boshqa tarmoqlari ham rivojlanadi. Shu nuqtai nazardan xam chorvachilikni yanada rivojlantirish respublikamizning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Chorvachilik muhim tarmoqlaridan biri qoramolchilik hisoblanadi.

Mulkchilik shaklining o'zgarishi bilan chorvachilik tizimining yangilanishi, qoramollarning fermer xo'jaliklariga berilishi, tarmoqda muhim vazifalarni hal etishni taqoza etmoqda.

Ma'lumki, qoramolchilik fanining maqsadi va asosiy vazifasi har xil tabiiy - iqlim sharoitlarida tashkiliy - xo'jalik, ijtimoiy- iqtisodiy sharoitlarni e'tiborga olgan holda qoramollarni parvarishlash, zamonaviy texnologiyalar asosida ulardan yuqori sifatli va raqobatbardoshli mahsulotlar yetishtirishni o'rgatishdir.

Bunga erishish uchun esa yuqori malakali, sohaning texnologik jarayonlarini mukammal biladigan kadrlarni tayyorlash muhim sanaladi.

Shu nuqtai nazardan, yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda ushbu ko'rsatma tayyorlandi. Taqdim etilayotgan uslubiy ko'rsatmada; koramolchilik tarmog'ining halq xo'jaligidagi ahamiyati, qoramollarning biologiyasi, yangi zotlar, ulardan sut va go'sht yetishtirish texnologiyasi kabi mustaqil ta'limga ajratilgan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar uchun belgilangan mavzularni o'rganishga oid uslubiy maslahatlar yoritilgan va unda o'rganish uslublari hamda nazorat savollari keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2009 yilda tasdiqlangan namunaviy o'quv rejasi va dasturida 5620600 – Zootexniya (tarmoqlar bo'yicha) va 5140900 – Kasb ta'limi (zootexniya) ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun mos ravishda; 50 soat ma'ruza, 90 soat amaliy mashg'ulot; 84 soat mustaqil ta'lim (52 soat ma'ruza, 32 soat amaliy mashg'ulot); 40 soat ma'ruza, 60 soat amaliy mashg'ulotlar, 50 soat mustaqil ta'lim (30 soat ma'ruza, 20 soat amaliy mashg'ulot) dars soatlari ajratilgan.

Jami bo'lib, 5620600-Zootexniya (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi uchun 214 soat; 5140900-Kasb ta'limi (zootexniya) ta'lim yo'nalishi uchun esa 150 soat ajratilgan.

Namunaviy dasturda mustaqil ta'limga ajratilgan soatlar bo'yicha mavzular ham ko'rsatilgan bo'lib, mavzularga oid barcha masalalarni o'qituvchi dars davomida bayon etib ulgura olmaydi. Shuning uchun talabaning dasturda ko'rsatilgan mavzularni mustaqil uzlashtirishi, ular bo'yicha konspekt tuzishi, qoramolchilik fanini o'zlashtirishning asosiy shakli hisoblanadi. Mustaqil ta'limga ajratilgan mavzu va mashg'ulotlarni o'zlashtirish bo'yicha yakunlovchi hujjat bu mavzular bo'yicha referat yozish, uni himoya qilish, topshiriqlarni bajarish hisoblanadi.

Ushbu uslubiy ko'rsatmada qoramolchilik fanining dasturida mustaqil ta'limga ajratilgan mavzularni o'zlashtirish shakli bo'yicha uslubiy maslahatlar, fan bo'yicha nazorat va test savollari o'z – o'zini sinash uchun savollar, ilovalar va foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati berilgan.

Qoramolchilik fanidan mustaqil ishlarni bajarish tartibi va baholash mezonlari

Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda o'quv dasturida mustaqil ta'limga ajratilgan materiallarni o'zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki talabalar o'quv jarayoniga ajratilgan vaqtning 30 – 35 foizini auditoriyadan tashqarida mustaqil ta'limga ajratilgan mavzularni o'zlashtirish va uyga berilgan vazifalarni bajarish uchun sarflaydi. Shu sababli talabalarning mustaqil ishlashini rejalashtirish va tashkil etish masalasiga kafedra, dekanat va rektorat tomonidan katta e'tibor berilishini talab etadi.

Darsdan tashqari mustaqil ishlash vaqtida talaba uyga berilgan vazifalarni, bosqich ishlarini, malakaviy bitiruv ishlari va boshqa turdagi o'qo'v ishlarini amalga oshiradi. Shu bilan bir qatorda 2005 – 2006 o'quv yilidan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 34 – sonli bo'yrug'iga asosan o'quv dasturida ma'ruza, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha mustaqil ta'limga ajratilgan mavzularni talaba auditoriyadan tashqari vaqtida mustaqil bajarishi lozim. Talabaning barcha mustaqil ishga ajratilgan soati haftalik o'quv jadvalida ko'rsatilgan soatlariga (28soat) yana qo'shimcha 20 – 24 soat yoki har kuni 3 – 4 soatni tashkil etadi. Semestr bo'yicha har bir fandan mustaqil ta'limga ajratilgan soatlarni bajarish, mavzularni o'zlashtirish tartibi va grafigi kafedrada tuzilib, dekanat tomonidan tasdiqlanadi va talabalarga yetkaziladi. Guruhlar bo'yicha talabalarning mustaqil ishlarini bajarish joyi va vaqti dekanat bilan kelishilgan holda kafedra mudiri tomonidan aniqlanadi. Kafedra rejasiga asosan fakultet dekanati tomonidan semestr uchun har bir fan shu jumladan; qoramolchilik fani bo'yicha ham mustaqil ta'lim yig'ma jadvali grafigi tuziladi. Bunda semestr davomida talabaning darsdan tashqari vaqtidagi yuklamasini bir me'yorda bo'lishi ta'minlanishi kerak.

Kafedra mudiri kafedradagi barcha fanlardan talabalarning mustaqil ta'lim bo'yicha tuzilgan rejaning bajarilishini ta'minlash maqsadida laboratoriyalar, auditoriyalar, o'qituvchilar va o'quv yordamchi xodimlarning ishlarini to'g'ri rejalashtirishi va tashkil yetishi lozim. Bunda har bir fandan dars beradigan professor - o'qituvchilar talabalar tomonidan mustaqil ta'limga ajratilgan mavzularni yuqori darajada o'zlashtirishiga javobgardir. Fanlar bo'yicha o'tkazilgan mustaqil ishning hisoboti maxsus jurnalda qayd etiladi. Mustaqil ish rejasini bajarmagan yoki mustaqil tayyorlanishga kelmagan talabalar haqida barcha ma'lumotlar ma'muriy chora ko'rish uchun dekanatga yetkaziladi. Mustaqil ta'lim rejasini muvaffaqiyatli bajargan talabalarga joriy va oraliq baholashlar bo'yicha ballar qo'yiladi.

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil yetish qoidalari OO'MTVning 2009 yil 14 avgust № 286 – sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan “ Talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish bo'yicha yo'riqnoma” da berilgan. Ushbu yo'riqnoma institut markaziy uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ijroga tavsiya etilgan (bayonnoma № 2 , 2009 y). Nizom institut Ilmiy kengashida muhokama qilingan va tavsiya etilgan (bayonnoma № 2, 2009 yil oktyabr). Talabalar mustaqil ishlarini bajarishni baholash OUMTV ning “ Talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi” NIZOMiga asosan baholab boriladi.

Zootexniya, hayvonlar genetikasi va urchitish kafedrasining 2010 yil № 1 sonli majlis qarori bilan “Qoramolchilik” fanidan talabalar mustaqil ishini referat ko'rinishida yozishi, topshiriqlarni bajarishi uni kafedrada og'zaki tarzda topshirishi va test o'tkazish tartibida amalga oshirish rejalashtirilgan.

Referat mavzulari va test savollari bilan talabalar o'quv yilining boshida ma'ruza o'qituvchisi hamda amaliy mashg'ulotlarni o'tkazuvchi o'qituvchi tomonidan tanishtiriladi. Talabalar mavzularni ko'rsatilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib, mustaqil ravishda bitta umumiy daftarga konspekt qilib borishadi. Kerakli yo'l – yo'riqlarni fan o'qituvchilari va kafedra tomonidan belgilangan ma'sul o'qituvchilardan oladi. Rejadagi ma'ruza darslari tugagandan so'ng barcha mavzular bo'yicha tayyorlangan referat ishi himoya qilinadi. Himoya mavzu bo'yicha talabaning nazariy va amaliy bilimi hamda ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar majmuini e'tiborga olgan holda o'tkaziladi. Shuning uchun referatda mavzu bo'yicha berilgan reja to'liq yoritilgan bo'lishi kerak. Mustaqil ta'limga ajratilgan mavzularni talaba test yoki og'zaki tarzda xam topshirishi mumkin. Referat , test yoki og'zaki so'rov bo'yicha talabaning olgan reyting bali bitta OB bali bilan baholanadi va jami OB ga qo'shiladi.

Talabalar mustaqil ta'limning amaliy mashg'ulotlar qismi bo'yicha test nazoratidan, topshiriqlarni bajarish, yozma ish va og'zaki so'rovdan o'tadilar. Yozma ishni bajarishda berilgan topshiriq – jadval to'ldirilib, qisqacha xulosa qilinadi va o'qituvchi tomonidan baholanadi.

Test nazorati test varianlari (1 - ilova) asosida yoki kompyuterda (2 - ilova) o'tkaziladi. Test nazoratining titul varaqasi 3 – ilovada keltirilgan. Test nazorati kompyuterda olinsa, uning natijalari 4 – ilovaga muvofiq to'ldiriladi. Test nazoratidan talabalarning mustaqil ta'lim bo'yicha olgan bilimlari reyting grafigiga asosan baholanadi va umumiy reyting balining JB qismiga qo'shiladi.

Referat ishlarini himoya qilaolmagan yoki test nazoratidan o'taolmagan talabalarga qaytadan topshirish muddati o'qituvchi tomonidan yakuniy nazoratgacha belgilanadi. Shundan keyin yetarlicha ball olmagan talabalar yakuniy nazoratga qo'yilmaydi.

Referat ishlari va test nazoratining titul varaqlari (institut “ Axborot texnologiyalari markazi” dan olingan qaydnoma) kafedrada NIZOM ga asosan saqlanadi.

Auditoriya darslari va mustaqil ta'lim mashg'ulotlari xajmi (soat)
5620600 - Zootexniya (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha

Darslar	Ma'ruza	Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar	Jami
Auditoriya darsi	50	90	140
Mustaqil ta'lim	52	32	84
Jami	102	122	224

5140900 - Kasb ta'limi (zootexniya) yo'nalishi uchun

Darslar	Ma'ruza	Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar	Jami
Auditoriya darsi	40	60	100
Mustaqil ta'lim	30	20	50
jami	70	80	150

5620600 – Zootexniya (tarmoqlar bo'yicha), 5140900 – Kasb ta'limi (zootexniya) ta'lim yo'nalishlari 4 – bosqich talabalarini “Qoramolchilik” fanidan 100 ballik tizimda

BAHOLASH MEZONLARI

№	Nazorat turi	Maksimal ball	Baholash mezonlari, %			
			0 - 54	55 - 70	71 - 85	86 - 100
1	Joriy baholash	30	0 –16.2	16.3 –21.0	21.1 – 25.5	25.6 – 30.0
2	Oraliq baholash	40	0 –21.6	21.7 –28.0	28.1 – 34.0	34.1– 40.0
3	Yakuniy baholash	30	0 –16.2	16.3 –21.0	21.1 – 25.5	25.6 – 30.0
jami		100	0 - 54	55.0 –70.0	71.0 – 85.0	86.0 - 100

Talabalarining reytingi mustaqil ishlar hisobiga quyidagi baholash mezonlariga asosan baholanadi 5620600 - Zootexniya (tarmoqlar bo'yicha)

Nazorat turi	Maksimal ball	Nazoratlar soni	Har bir nazorat turining maksimal ball (2 soatga)	Baxolash mezonlari			
				Baxo "2" 0-54	Baxo "3" 55-70	Baxo "4" 71-85	Baxo "5" 86-100
JB	9	16	0.56	0 – 0.3	0.31- 0.39	0.40 - 0.47	0.48 – 0.56
OB	12	2	6	0 – 3.24	3.25 – 4.2	4.3 – 5.1	5.2 – 6.0

Talabalarining reytingi mustaqil ishlar hisobiga quyidagi baholash mezonlariga asosan baholanadi 5140900-Kasb ta'limi (zootexniya)

Nazorat turi	Maksimal ball	Nazoratlar soni	Har bir nazorat turining maksimal ball (2 soatga)	Baxolash mezonlari			
				Baxo "2" 0-54	Baxo "3" 55-70	Baxo "4" 71-85	Baxo "5" 86-100
JB	9	10	0.9	0 – 0.48	0.49- 0.63	0.64 - 0.76	0.77 – 0.9
OB	12	2	6	0 – 3.24	3.25 – 4.2	4.3 – 5.1	5.2 – 6.0

Eslatma : talabalarining mustaqil ishlarni bajarish bo'yicha yig'gan ballari joriy va oraliq ballari yig'indisiga qo'shiladi.

5620600-Zootexniya (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi uchun
“Qoramolchilik” fani bo'yicha ma'ruzalar mavzulari

№	Mavzular	Soat
1	Qoramolchilikning ahamiyati, holati va rivojlanishi	2
2	Qoramollarning kelib chiqishi va biologik xususiyatlari	2
3	Qoramollarning ekstereri, intereri va konstitusiyasi	2
4	Qoramollarning sut mahsuldorligi	2
5	Qoramollarning go'sht mahsuldorligi	2
6.	Go'sht mahsuldorligining shakllanishi va unga ta'sir yetuvchi omillar	2
7	Qoramol zotlari	2
8.	Sut yo'nalishidagi qoramol zotlari	2
9	Sut-go'sht yo'nalishidagi qoramol zotlari	2
10	Go'sht yo'nalishidagi qoramol zotlari	2
11	Qoramolchilikda naslchilik ishlari	2
12	Qoramolchilikda naslchilik ishining nazariy asoslari	2
13	Qoramollarni baholash va tanlash	2
14	Qoramollarni saralash (juftlash)	2
15	Naslchilik ishini rejalashtirish	2
16	Podani takror ishlab chiqarishning zootexnikaviy asoslari	2
17	Yosh qoramollarni parvarishlash texnologiyasi	2
18	Podani to'ldiradigan urg'ochi tanalar va nasldor buqachalarni o'stirish	4
19	Sut ishlab chiqarish texnologiyasi	4
20	Uzluksiz aylanma sexlar tizimida sut ishlab chiqarish	2
21	Qoramol go'shti ishlab chiqarish texnologiyasi	4
22	Go'shtdor qoramolchilik texnologiyasi	2
	Jami:	50

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlar mavzulari

№	Mavzular	Soat
1	Qoramollar ekstereri. Mollar tana qismlarini o'rganish va ekstererni ko'zda chamalab baholash	2
2	Qoramollar tanasini o'lchash va o'lchamlari asosida vaznini aniqlash	2
3	Mollarning eksterer xususiyatlarini hamda tana indekslarini o'rganish	2
4	Ishlab chiqarish va naslchilik hisobotlarini tashkil yetish xususiyatlari	2
5	Qoramollarni tamg'alash usullari va hisobotlari	2

6	Qoramollarni yoshini aniqlash usullari va uning tahlili	2
7	Qoramollarni shoxsizlantirish usullari	2
8	Podas tarkibi va uning hisoboti tahlili	2
9	Sigirlarning sut mahsuldorligini hisoblash va baholash	4
10	Sigirlarning sut mahsuldorligini aniqlash	2
11	Furaj sigirlarning bosh sonini aniqlash	2
12	Sut ishlab chiqarishni rejalashtirish	4
13	Mollarni urug'lantirishni va tug'dirishni rejalashtirish	2
14	Yirik sutchilik fermalari va fermerlar uchun yem – xashak balansini tuzish	4
15	Fermer xo'jaliklarida qoramollarning oziqaga va yekin maydoniga bo'lgan talabini xisoblash	2
16	Sigirlarni mahsuldorligi bo'yicha klasslarga bo'lib oziqlantirish	4
17	Yelinni baholash	2
18	Yekskursiya darsi	6
19	Qoramollarning semizlik darajasini aniqlash	2
20	Qoramollarni go'sht mahsuldorligini xisobga olish	2
21	Qoramollarning go'sht mahsuldorligini va go'shtning sifatini aniqlash	2
22	Qoramollarning go'sht mahsuldorligiga ta'sir yetuvchi omillar	2
23	Sigirlar podasini to'ldiruvchi - ta'mirlovchi yosh mollarni parvarishlashni rejalashtirish	2
24	Sutchilik komplekslarida podani to'ldiradigan urg'ochi tana va g'unajinlarni parvarishlash	4
25	Nazorat molxonalarida birinchi tuqqan sigirlarni parvarishlash, baholash va mahsuldorligini oshirish	2
26	Yosh qoramollarni go'sht uchun boqishni rejalashtirish	2
27	Go'shtchilik komplekslari va korxonalarida yosh mollarni go'sht uchun boqish	2
28	Qoramollarni kelib chiqishi bo'yicha baholash va tanlash	2
29	Sut va sut – go'sht yo'nalishidagi zotlarni bonitirovka qilish	2
30	Sut va sut – go'sht yo'nalishidagi nasldor buqalarni avlodining sifati bo'yicha baholash	2
31	Sut va sut go'sht yo'nalishidagi yosh mollarni kompleks belgilari bo'yicha klassini aniqlash	2
32	Sut va sut go'sht yo'nalishidagi nasllik buqalarni kompleks belgilari bo'yicha klassini aniqlash	2
33	Go'shtdor zotli mollarni bonitirovka qilish	4
34	Go'shtdor zotli nasldor buqalarni avlodining sifati bo'yicha baholash	2
35	Qoramolchilikdan yekskursiya darsi	6
	Jami	90

Mustaqil ta'lim uchun ma'ruzalar mavzulari

№	Topshiriq mavzusi	Ish turi	Axbarot manbai	Nazorat shakli	Soat
1	Jahonda va Respublikamizda sutdor va go'shtdor qoramolchilikdagi yangiliklar	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, ilmiy maqolalar, internet saytlari	Referat	2
2	Qoramollar ekstererini turli omillar ta'sirida o'zgarishi. Qoramollar kondisiyasi.	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, ilmiy maqolalar, internet saytlari	Referat	2
3	Sutdorlikni va sutning asosiy komponentlarini o'zgaruvchanligi va nasldan naslga o'tishi	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, ilmiy maqolalar, internet saytlari	Referat	4
4	Qoramollarning go'sht maxsuldorligiga ta'sir yetuvchi omillar	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, ilmiy maqolalar, internet saytlari	Referat	2
5	Yosh qoramollarni o'stirish texnikasi va uni tashkil yetish	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, ilmiy maqolalar, internet saytlari	Referat	2
6	Nasldor buqalarni sut davridan so'ng ustirish	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, ilmiy maqolalar, internet saytlari	Referat	4
7	Sigirlarni sog'ish va sutni sifatini nazorat qilish	Taxlil qilish, berilgan	Adabiyotlar ro'yxati, ilmiy maqolalar,	Referat	2

		savollarga javob berish	internet saytlari		
8	Qoramolarni so'qimlash va yaylovda bo'rdoqilash texnologiyasi	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, ilmiy maqolalar, internet saytlari	Referat	4
9	Qoramollarning terisi. Qoramollardan ishchi kuchi sifatida foydalanish	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, ilmiy maqolalar, internet saytlari	Referat	2
10	O'zbekistondagi urchitiladigan rejali qoramol zotlari va ularni urchitish mintaqalari	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, ilmiy maqolalar, internet saytlari	Referat	4
11	O'zbekistonning maxalliy zebusimon qoramollari va ularni boshqa zotlar bilan duragaylari	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, ilmiy maqolalar, internet saytlari	Referat	4
12	Qoramollarni tanlashda xisobga olinadigan seleksion belgilar	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, ilmiy maqolalar, internet saytlari	Referat	2
13	Buqa va sigirlarni prepotentligi bo'yicha baxolash	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, ilmiy maqolalar, internet saytlari	Referat	2
14	Buqalarni bonitirovka qilish asoslari	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob	Adabiyotlar ro'yxati, ilmiy maqolalar, internet saytlari	Referat	2

		berish			
15	Qatorlar va oilalar bo'yicha urchitish asoslari	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, ilmiy maqolalar, internet saytlari	Referat	2
16	Sigir va urg'ochi tanalarni jinsiy dispanserizasiyadan o'tkazish	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, ilmiy maqolalar, internet saytlari	Referat	4
17	Pushtsizlikdan keladigan zararni aniqlash	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, ilmiy maqolalar, internet saytlari	Referat	4
18	Qoramolchilikda biotexnologik uslublar va ularni qo'llash istiqbollari	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, ilmiy maqolalar, internet saytlari	Referat	4
	Jami				52

Mustaqil ta'lim uchun amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari

№	Topshiriq mavzusi	Ish turi	Axbarot manbai	Nazorat shakli	Soat
1	Qoramollarning konistitutsiya tiplari va uning maxsuldorlikka bog'liqligini aniqlash	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, uslubiy ishlanmalar	Og'zaki so'rov va test nazorati	2
2	Qoramollarni ekstererini va konstitutsiyasini ball bilan baxolash	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, uslubiy ishlanmalar	Og'zaki so'rov va test nazorati	2
3	Qoramolchilikda	Taxlil	Adabiyotlar	Og'zaki so'rov	2

	yuritiladigan zootexnika xujjatlari	qilish, berilgan savollarga javob berish	ro'yxati, uslubiy ishlanmalar	va test nazorati	
4	Podani to'ldiradigan urg'ochi tanalarni sonini aniqlash	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, uslubiy ishlanmalar	Og'zaki so'rov va test nazorati	2
5	Qoramollarni yaylovda semirtirish rejasini tuzish	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, uslubiy ishlanmalar	Og'zaki so'rov va test nazorati	2
6	Sutni qabul qilish va topshirishni tashkil yetish	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, uslubiy ishlanmalar	Og'zaki so'rov va test nazorati	2
7	Qoramollarni go'shtga topshirish va qabul qilishni tashkil yetish	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, uslubiy ishlanmalar	Og'zaki so'rov va test nazorati	2
8	Qoramollarning davlat naslchilik kitoblarini o'rganish	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, uslubiy ishlanmalar	Og'zaki so'rov va test nazorati	4
9	Naslchilik ishlari rejasini tuzish tartibini o'rganish	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, uslubiy ishlanmalar	Og'zaki so'rov va test nazorati	4
10	Qoramol zotlarini o'rganish	Taxlil qilish, berilgan	Adabiyotlar ro'yxati, uslubiy	Og'zaki so'rov va test nazorati	2

		savollarga javob berish	ishlanmalar		
11	Avlodlari bo'yicha baxolangan buqalardan foydalanish	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, uslubiy ishlanmalar	Og'zaki so'rov va test nazorati	2
12	Bonitirovka asosida o'tkaziladigan tadbirlar	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, uslubiy ishlanmalar	Og'zaki so'rov va test nazorati	4
13	Go'shtdor qoramol zotlarini zotdorligini va maxsuldorligini aniqlash	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, uslubiy ishlanmalar	Og'zaki so'rov va test nazorati	2
14	Naslli qoramollarni xarid narxini aniqlash	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, uslubiy ishlanmalar	Og'zaki so'rov va test nazorati	2
	Jami				32

**5140900-Kasb ta'limi (zootexniya) yo'nalishi talabalari uchun
“Qoramolchilik” fani bo'yicha ma'ruzalar mavzulari**

№	Mavzular	Soat
1	Qoramolchilikning ahamiyati, holati va rivojlanishi	2
2	Qoramollarning kelib chiqishi va biologik xususiyatlari	2
3	Qoramollarning ekstereri, intereri va konstitusiyasi	2
4	Qoramollarning sut mahsuldorligi	2
5	Qoramollarning go'sht mahsuldorligi	2
6.	Qoramol zotlari	2
7	Sut yo'nalishidagi qoramol zotlari	2
8.	Sut-go'sht yo'na-lishidagi qora-mol zotlari	2
9	Go'sht yo'nalishidagi qoramol zotlari	2

10	Qoramolchilikda naslchilik ishlari	2
11	Qoramolchilikda naslchilik ishining nazariy asoslari	2
12	Qoramollarni baholash va tanlash	2
13	Qoramollarni saralash (juftlash)	2
14	Podani takror ishlab chiqarishning zootexnikaviy asoslari	2
15	Yosh qoramollarni parvarishlash texnologiyasi	2
16	Sut ishlab chiqarish texnologiyasi	4
17	Uzluksiz aylanma sexlar tizimida sut ishlab chiqarish	2
18	Qoramol go'shti ishlab chiqarish texnologiyasi	4
	Jami:	40

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlar mavzulari

№	Mavzular	Soat
1	Qoramollar ekstereri. Mollar tana qismlarini o'rganish va ekstererni ko'zda chamalab baholash	2
2	Qoramollar tanasini o'lchash va o'lchamlari asosida vaznini aniqlash	2
3	Mollarning eksterer xususiyatlarini hamda tana indekslarini o'rganish	2
4	Ishlab chiqarish va naslchilik hisobotlarini tashkil yetish xususiyatlari	2
5	Qoramollarni tamg'alah usullari va hisobotlari	2
6	Qoramollarni yoshini aniqlash usullari va uning tahlili	2
7	Qoramollarni shoxsizlantirish usullari	2
8	Sigirlarning sut mahsuldorligini hisoblash va baholash	2
9	Furaj sigirlarning bosh sonini aniqlash	2
10	Fermer xo'jaliklarida qoramollarning oziqaga va yekin maydoniga bo'lgan talabini xisoblash	4
11	Sigirlarni maxsuldorligi bo'yicha klasslarga bo'lib oziqlantirish	2
12	Yelinni baholash	2
13	Qoramollarning semizlik darajasini aniqlash	2
14	Qoramollarni go'sht maxsuldorligini xisobga olish	2
15	Qoramollarning go'sht mahsuldorligiga ta'sir yetuvchi omillar	2
16	Sigirlar podasini to'ldiruvchi - ta'mirlovchi yosh mollarni parvarishlashni rejalashtirish	2
17	Yosh qoramollarni go'sht uchun boqishni rejalashtirish	2
18	Go'shtchilik komplekslari va korxonalarida yosh mollarni go'sht uchun boqish	2
19	Qoramollarni kelib chiqishi bo'yicha baholash va tanlash	2
20	Sut va sut – go'sht yo'nalishidagi zotlarni bonitirovka qilish	2
21	Sut va sut – go'sht yo'nalishidagi nasldor buqalarni avlodining sifati bo'yicha baholash	2
22	Sut va sut go'sht yo'nalishidagi yosh mollarni kompleks belgilari	2

	bo'yicha klassini aniqlash	
23	Sut va sut go'sht yo'nalishidagi nasllik buqalarni kompleks belgilari bo'yicha klassini aniqlash	2
24	Go'shtdor zotli mollarni bonitirovka qilish	4
25	Go'shtdor zotli nasldor buqalarni avlodining sifati bo'yicha baholash	2
26	Qoramolchilikdan yekskursiya darsi	6
	Jami	60

Mustaqil ta'lim uchun ma'ruzalar mavzulari

№	Topshiriq mavzusi	Ish turi	Axborot manbai	Nazorat shakli	Soat
1	Jahon va Respublikamizda sutdor va go'shtdor qoramolchilikdagi yangiliklar	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, ilmiy maqolalar, internet saytlari	Referat	2
2	Qoramollar ekstererini turli omillar ta'sirida o'zgarishi. Qoramolla kondisiyasi	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, ilmiy maqolalar, internet saytlari	Referat	2
3	Yosh qoramollarni o'stirish texnikasi va uni tashkil yetish	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, ilmiy maqolalar, internet saytlari	Referat	2
4	Nasldor buqalarni sut davridan so'ng o'stirish	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, ilmiy maqolalar, internet saytlari	Referat	2
5	Sigirlarni sog'ish va sutni sifatini nazorat qilish	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, ilmiy maqolalar, internet saytlari	Referat	2
6	Qoramolarni	Taxlil	Adabiyotlar	Referat	2

	so'qimlash va yaylovda bo'rdoqilash texnologiyasi	qilish, berilgan savollarga javob berish	ro'yxati, ilmiy maqolalar, internet saytlari		
7	Qoramollarning terisi. Qoramollardan ishchi kuchi sifatida foydalanish	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, ilmiy maqolalar, internet saytlari	Referat	2
8	O'zbekistonning maxalliy zebusimon qoramollari va ularni boshqa zotlar bilan duragaylari	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, ilmiy maqolalar, internet saytlari	Referat	4
9	Qatorlar va oilalar bo'yicha urchitish asoslari	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, ilmiy maqolalar, internet saytlari	Referat	4
10	Sigir va urg'ochi tanalarni jinsiy dispanserizasiyadan o'tkazish	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, ilmiy maqolalar, internet saytlari	Referat	2
11	Pushtsizlikdan keladigan zararni aniqlash	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, ilmiy maqolalar, internet saytlari	Referat	2
12	Qoramolchilikda biotexnologik uslublar va ularni qo'llash istiqbollari	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, ilmiy maqolalar, internet saytlari	Referat	4
	Jami				30

Mustaqil ta'lim uchun amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari

№	Topshiriq mavzusi	Ish turi	Axbarot manbai	Nazorat shakli	Soat
1	Qoramollarning konstitutsiya tiplari va uning maxsuldorlikka bog'liqligini aniqlash	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, uslubiy ishlanmalar	Og'zaki so'rov va test nazorati	2
2	Qoramolchilikda yuritiladigan zootexnika xujjatlari	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, uslubiy ishlanmalar	Og'zaki so'rov va test nazorati	4
3	Podani to'ldiradigan urg'ochi tanalarni sonini aniqlash	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, uslubiy ishlanmalar	Og'zaki so'rov va test nazorati	2
4	Qoramollarni yaylovda semirtirish rejasini tuzish	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, uslubiy ishlanmalar	Og'zaki so'rov va test nazorati	2
5	Qoramollarni go'shtga topshirish va qabul qilishni tashkil yetish	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, uslubiy ishlanmalar	Og'zaki so'rov va test nazorati	4
6	Qoramollarning davlat naslchilik kitoblarini o'rganish	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, uslubiy ishlanmalar	Og'zaki so'rov va test nazorati	2
7	Banitirovka asosida o'tkaziladigan	Taxlil qilish,	Adabiyotlar ro'yxati,	Og'zaki so'rov va test nazorati	2

	tadbirlar	berilgan savollarga javob berish	uslubiy ishlanmalar		
8	Naslli qoramollarni xarid narxini aniqlash	Taxlil qilish, berilgan savollarga javob berish	Adabiyotlar ro'yxati, uslubiy ishlanmalar	Og'zaki so'rov va test nazorati	2
	Jami				20

MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI VA ULARNI BAJARISH BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

1 – mavzu. Jahonda va Respublikamizda sutdor va go'shtdor qoramolchilik sohasidagi yangiliklar

Reja:

1. Jahonda va Respublikamizda go'shtdor qoramolchilik sohasining holati va rivojlanishi
2. Sutdor va go'shtdor qoramolchilik sohasidagi yangiliklar
3. Jahonda va Respublikamizda sutdor qoramolchilik sohasining holati va rivojlanish istiqbollari

Mavzu bo'yicha talabalarning nazariy bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar mazmuni. Jahon va Respublikamizda sutdor va go'shtdor qoramolchilikdagi yangiliklar masalalariga oid ma'lumotlar tavsiya yetilgan adabiyotlar, ilmiy maqolalar, internet saytlari yordamida har bir talaba tomonidan mavzu referatlashtiriladi. Keltirilgan ma'lumotlar taxlil qilinadi, savollarga javob beriladi.

Uslubiy maslahatlar

Qoramolchilik chorvachilikning asosiy tarmoqlaridan biri xisoblanadi. Planetamizda yashayotgan axolining chorvachilik maxsulotlariga bo'lgan talabini jumladan, sutga 99 %, go'sht maxsulotlariga bo'lgan talabini esa qariyb 50 % ni qoramolchilik soxasi yetishtirib beradi. Qoramolchilikda yuqori sifatli maxsulotlar ishlab chiqarish dolzarbligini saqlagan xolda, yildan-yilga muammo bo'lib bormoqda.

Bizning mamlakatimizda qoramolchilikni rivojlantirish moddiy texnika bazasini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, shu asosda tarmoqni jadal rivojlantirib, kam mexnat va moddiy mablag'lar sarflab yuqori maxsulot ishlab chiqarishga qaratilgan. Bunday ishlar albatta ilmiy-texnik taraqqiyotga asoslangan bo'lishi kerak. Ilg'or amaliyot natijalari shuni tasdiqlaydiki, qoramolchilikda intensiv texnologiyani qo'llash har bir sigirdan 3,5-4,5 ming kg sut sog'ib olishni va buqalarning kunlik o'sishini esa 1000 g ga yetkazish mumkinligini tasdiqlaydi.

Taqqoslovsh maqsadida Yevropa ittifoqi mamlakatlaridagi sigirlarning sut maxsuldorlik ko'rsatkichlarini keltirish mumkin. Yevropa ittifoqidagi 15 ta mamlakatda 1998 yil 22 ml bosh sigir bo'lib, ularning har biridan o'rtacha 5610 kg sut sog'ib olingan. Eng yuqori sut maxsuldorligiga yega bo'lgan sigirlar Isroil mamlakatida kuzatilib, 224 ming bosh sigir bu mamlakatda urchitiladi va ularning har biridan o'rtacha 11,5 ming kg sut sog'ib olingan. Sigirlarning maxsuldorligini yuqori bo'lishida faqat sut ishlab chiqarish texnologiyasini qo'llash yemas balki ularning podasidagi sigirlarning jahon genofondiga xos bo'lgan, xususan AQSh va Kanadaning golshtin seleksiyasiga mansubligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Qoramollarning sut va go'sht maxsuldorligini oshirish maqsadida bir nechta muammolar mavjud; naslchilik va seleksiya ishlarini olib borish, mustaxkam oziqa

bazasini yaratish shular jumlasidandir. Mamlatimizda sutdor va go'shtdor qoramollarning genetik potensialidan 30-50 % foydalanilmoqda xolos. Bu imkoniyatni yuqori ko'rsatkichlarga yerishtirish maqsadida hayvonlarni oziqlantirishni yaxshilash muxim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari qoramollarni asrash sharoitlari zoogigshiyenik talablar asosida bo'lmog'i lozim.

Qoramolchilik 2 ta; sut va go'sht yo'nalishiga bo'linadi. Dunyoda ishlab chiqarilayotgan go'sht salmog'ining 4 dan 1 qismini qoramol go'shti tashkil etadi (P.I.Zelenkov, A.I.Baranikov, 2005). Qoramol go'shti sut va go'sht yo'nalishidagi qoramolchilikdan olinadi. Sutdor qoramolchilikda go'sht ishlab chiqarish ikkinchi darajali maxsulot xisoblanadi. Go'sht yo'nalishidagi qoramolchilikda esa asosiy maxsulot bo'lib qoramol go'shti ishlab chiqarish xisoblanadi. Go'shtdor qoramolchilik rivojlangan mamlakatlarda 522 ml qoramol urchitilib dunyodagi jami qoramollarning 39 % ni tashkil qiladi. Ulardan 30,8 mln tonna go'sht olinib u jami ishlab chiqariladigan go'sht salmog'ida 53 % dir.

Me'yor bo'yicha xar bir odamga bir yilda 32 kg qoramol go'shti va 379 kg sut iste'mol qilishi talab yetiladi. Ushbu talabni qondirish maqsadida jahonda va Respublikamizda sutdor va go'shtdor qoramolchilikni rivojlantirish muxi ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil ishlash uchun savollar

1. Jahonda va Respublikamizda sutdor qoramolchilik sohasining holati va rivojlanish istiqbollari
2. Sutdor va go'shtdor qoramolchilik sohasidagi yangiliklar
3. Jahonda va Respublikamizda go'shtdor qoramolchilik sohasining holati va rivojlanishi

Mavzu bo'yicha foydalaniladigan adabiyotlar: 1,2,3,4,5,6,7,8,33

2–mavzu. Qoramollar ekstererini turli omillar ta'sirida o'zgarishi, qoramolar kondisiyasi

R y e j a:

1. Ekstererini baholash usullari
2. Qoramollar ekstererini turli omillar ta'sirida o'zgarishi
3. Qoramollarning kondisiyasi

Mavzu bo'yicha talabalarning bilim ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar mazmuni.

Qoramollar ekstererini turli omillar ta'sirida o'zgarishi, qoramollar kondisiyasi masalalariga oid ma'lumotlar tavsiya yetilgan adabiyotlar, ilmiy maqolalar, internet tizimi yordamida har bir talaba tomonidan referatlashtiriladi. Keltirilgan ma'lumotlar taxlil qilinadi, savollarga javob beradilar.

Uslubiy maslahatlar

Hayvonlarning tashqi tuzilishi shakliga eksterer deyiladi. Zootexniya faniga bu terminni birinchi bo'lib fransuz olimi Klod Burjel kiritgan.

Eksterer haqidagi ta'limotni yuzaga kelishi juda qadimiy hisoblanadi. Hayvonning ekstereriga qarab uning konstitusiyasi, sog'ligi va qisman mahsuldorligi haqida fikr yuritish mumkin. Lekin mahsuldorlikning ayrim turlari bo'yicha eksterer orqali ma'lumot olish qiyin. Masalan, sut mahsuldorligi, sutning va go'shtning kimyoviy tarkibi kabilar, chunki bu ko'rsatkichlar ko'p omillarga, jumladan modda almashuv tipiga bog'liq bo'ladi. Ish qobiliyati, go'sht mahsuldorligi bo'yicha aniqroq fikr yuritish mumkin.

Klod Burjel otlarning ekstererini ko'z bilan qarab va tanasining 40 dan ortiq o'lchamini olib ularning ish qobiliyatiga baho bergan. Nemis zootexnigi G.Zattegast (1868) hayvonning tashqi tuzilishi bilan mahsuldorligi o'rtasidagi bog'lanishni aniqlagan.

Eksterer haqidagi ta'limotni rus olimlaridan M.N. Pridorogin, Ye.A. Bogdanov, N.P. Kuleshov, Ye.F.Liskun va M.F.Ivanovlar yaratishgan. M.I. Pridorogin birinchi bo'lib Rossiyada 1904 yilda «Qishloq xo'jalik hayvonlarini ekstereri» darsligini chop qilgan. U ko'p yillik izlanishlari natijasida qishloq xo'jalik hayvonlarining tashqi tuzilishi bo'yicha yekspertiza qilish sistemasini ishlab chiqdi. Hayvonlarni kompleks baholash usullarini; (ko'z bilan chamalab, rasmga solish); andoza shakllarini (talab darajasidagi tip); hayvonning turiga, zotiga va mahsuldorlik yo'nalishiga qarab ekstererining bo'linishini ularning tipiga qarab yoshini aniqlashni; tana o'lchamlari bo'yicha tirik vaznini aniqlashni; tana o'lchamlari sistemasini kabilarni ishlab chiqdi.

Shuningdek, hayvonlarni ekstereri bo'yicha, baholashda P.N.Kuleshov yirik mutaxassis hisoblangan. U 1926 yilda «Eksterer bo'yicha otlarni, qoramollarni, qo'ylarni va cho'chqalarni tanlash» kitobini chop qildiradi. Bu uning zootexniya faniga qo'shgan yirik hissi bo'ldi. Ye.A. Bogdanov va M.F.Ivanov ham eksterer ta'limotiga hissa qo'shgan yirik olimlardan hisoblanadi. N.F.Liskun eksterer bo'yicha hayvonlarni

baholash, uning mahsuldorlik bilan bog'liqligini biologik asoslarini o'zining kitoblarida yoritgan. U yuqori malakali mutaxassislar – bonitirovkachilar maktabini yaratishga asos solgan.

Qoramollarning ekstereri organizmining irsiy xossalari va tashqi muhit ta'sirida shakllanib boradi. Eksterer ko'rsatkichlariga qarab hayvonning ichki xususiyatlari to'g'risida fikr yuritish mumkin.

Eksterer bo'yicha hayvonlarga baho berish ularning mahsuldorlik yo'nalish tipini baholashda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, ekstereri bo'yicha hayvonlarning o'zini zotiga xos yekanligi, morfologik belgilari bo'yicha zotning o'rtacha tipidan va mahsuldorlik sifatidan qanchalik farq qilish yoki qilmasligi haqida chiqariladi.

Eksterer bo'yicha baholashda hayvon yoshligida qanday sharoitda o'stirilganligi haqida fikr yuritish mumkin, nasldor bo'qalarda esa jinsiy demorfizmni shakllanishiga o'stirilgan sharoitining ta'siri qanday bo'lganligini aniqlash mumkin.

Hayvonlarning tashqi tuzilish shakli ularning mahsuldorligi va funksional xususiyatlari bilan o'zaro bog'liqligi tashqi sharoit talablaribilan ham muvofiqlashgan. Masalan, hayvonlar tog'li yaylovlarda asralib boqilganda sigirlarning mahsuldorligi ularning ko'krak qafasini, oyoqlarining muskulaturasini rivojlanganligi va tuyuq shoxining mustahkamligiga bog'liq bo'ladi, molxonada bog'lab asralganda ekstererning bu xususiyatlarini mahsuldorlik bilan aniq bog'liqligi ko'rinmaydi.

Shuningdek, sut qoramolchiligini sanoat asosiga ko'chirilishi ham ba'zi eksterer belgilarining mahsuldorlik bilan bog'liqligini yaqqol ko'rsatadi. Kuniga 3 marta qo'l bilan sog'iladigan ko'pgina yuqori mahsuldorli sigirlar, yelinining tuzilishi va hajmi bo'yicha komplekslarda kuniga ikki marta mashinada sog'ilishga yaroqsiz bo'lib qoladi. Yangi texnologik sharoitda yelinning va surg'ichlarning shakli va hajmi muhim eksterer ko'rsatkichlari sifatida ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, hayvonlarning ekstereri bilan sut mahsuldorligi o'rtasida bog'liqlik bo'lib, buni amaliyotda ahamiyati katta, lekin bu bog'liqlikning harakteri mollar urchitilayotgan xo'jaliklarning aniq tabiiy sharoitiga bog'liq bo'ladi. Bu sharoitlarning ta'sirini aniqlamasdan turib hayvonlarning morfologik va funksional xususiyatlarining bog'liqligini aniqlab bo'lmaydi.

Ta'kidlash joizki, qoramollarni maqsadga muvofiq o'stirishda ularning ekstereri va konstitusiyasi muhim rol o'ynaydi.

Hayvonlarda mahsuldorligiga monand keladigan konistitusiya tipini shakllantirishda eksterer ko'rsatkichlarini o'rganish lozim.

Mustaqil ishlash uchun savollar:

1. Ekstererni baholash usullari
2. Qoramollar ekstererini turli omillar ta'sirida o'zgarishi
3. Qoramollarning kondisiyasi

Mavzu bo'yicha foydalaniladigan adabiyotlar: 3,4,5,6,7,8, 12,14,21,24,27,33

3 – mavzu. Sutdorlikni va sutning asosiy komponentlarini o'zgaruvchanligi va nasldan - naslga o'tish xususiyatlari

Reja :

1. Nasl qoldiruvchanlik
2. Belgilarning takrorlanishi
3. Belgilar o'rtasidagi korrelyasion bog'lanish
4. Oqsil poliformizmi va biokimyoviy ko'rsatkichlarni qoramollar seleksiyasida qo'llash

Mavzu bo'yicha talabalarning nazariy bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar mazmuni

Sutdorlikni va sutning asosiy komponentlarini o'zgaruvchanligi va nasldan naslga o'tishi mavzusiga oid ma'lumotlar tavsiya yetilgan adabiyotlar, ilmiy maqolalar, internet tizimi yordamida har bir talaba tomonidan refaratlashtiriladi. Keltirilgan ma'lumotlar tahlil qilinadi, savollarga javob beriladi.

Uslubiy maslahatlar

O'zgaruvchanlik (σ) foizda ifodalanib, hayvonlar guruhini o'rtacha ko'rsatkichidan kvadratik og'ishini ko'rsatadi. Olingan natijani o'zgaruvchanlik koeffitsiyenti (S) deb yuritiladi.

O'zgaruvchanlik koeffitsiyentiga qarab guruhdagi hayvonlarda biror belgini rivojlanishi bo'yicha har xilligi tushunilib, seleksiya natijasida uni yaxshilash imkoniyati xaqida xulosa qilinadi. O'zgaruvchanlik koeffitsiyenti yuqori bo'lsa shu belgi bo'yicha seleksiya ishi olib borilganda imkoniyat ko'proq bo'ladi. Qoramollarning asosiy belgilarini o'rtacha o'zgaruvchanlik koeffitsiyenti quyidagi ko'rsatkichlarda xarakterlanadi: sut mahsuldorligi 20-25 %, sutdagi yog' miqdori 5-8, oqsil miqdori 4-8, sut berish tezligi 10-15, katta yoshli sigirlarni tirik vazni 12-15 %.

Sut mahsuldorligini, sutdagi yog' va oqsilni o'zgaruvchanlik koeffitsiyenti doimiy yemas, unga tashqi sharoit, tanlash jadalligi, juftlash tipini, genetik jihatdan har xilligi ta'sir ko'rsatadi. F.F.Yeysner ma'lumoti bo'yicha Simmental zotli sigirlar podasini (Xarkov viloyatini "Chervoniy Veleten" naslchilik zavodi) o'rtacha sut mahsuldorligi 4851 kg ga kamayganda o'zgaruvchanlik koeffitsiyenti 18,6 % dan 23,8 % ga oshgan. "Sichevka" naslchilik zavodida simmental zotli sigirlarning sut mahsuldorligi 3232 kg bo'lganda o'zgaruvchanlik koeffitsiyenti 30,1 %, 4290 kg bo'lganda 20,5 % bo'lgan.

Agar o'zgaruvchanlik koeffitsiyenti past bo'lsa podani shu belgi bo'yicha yuqori darajada shakllanganligini ko'rsatadi. Shu podani ichida bu belgini rivojlantirish bo'yicha seleksiya ishlarini olib borish samarasi ham past bo'ladi.

Qoramollar bilan naslchilik ishlarini olib borishda belgini o'zgaruvchanlik koeffitsiyentiga inbridingni (qarindoshlik urchitish) ta'sirini aniqlash katta ahamiyatga ega.

Sigirlarni sut mahsuldorligini o'zgaruvchanlik koeffitsiyenti turli xil podalarda turlicha bo'ladi (15-30 %). Sutdagi yog' miqdorini o'zgarishi ham turlicha bo'ladi, lekin sutning o'zgaruvchanligiga qaraganda pastroq (2,6-7,4 %) bo'ladi. Umumiy o'zgaruvchanlik amplitudasida asosiy salmoqni tashqi sharoitning ta'siri tashkil qiladi.

Shuningdek, qoramollarni boshqa seleksion belgilarini o'zgaruvchanlik koeffitsiyentlari ham yuqori bo'lishi mumkin (tirik vazni, tana tuzilishining ko'rsatkichlari, sutdagi oqsil miqdori, go'shtning sifati kabilar).

Individual o'zgaruvchanlik ham organizmning muhim xususiyati hisoblanadi. Inson hayvonlarni o'stirish va asrash sharoitini yaxshilash bilan mavjud zotlarni takomillashtiradi va yangi sarmahsuldorlarini yaratadi. Chunki, hayvon organizmidagi tashqi sharoit ta'sirida yuzaga kelgan o'zgarishlar nasldan-naslga o'tadi.

Mustaqil ishlash uchun savollar

1. Nasl qoldiruvchanlik
2. Belgilarning takrorlanishi
3. Belgilarning o'rtasida korrelyativ bog'lanish
4. Oqsil poliformizmi va bioximik ko'rsatkichlarni qoramollar seleksiyasida qo'llash

Mavzu bo'yicha foydalaniladigan adabiyotlar: 3,4,5,6,7,8,11,13,15,17,25,28,29,33

4 - mavzu. Qoramollarning go'sht maxsuldorligiga ta'sir etuvchi omillar

Reja:

1. Go'sht mahsuldorligiga oziqlantirish tipini va darajasini ta'siri
2. Go'sht mahsuldorligiga saqlash sharoitini ta'siri
3. Go'sht mahsuldorligiga zotini va tana tuzilishi tipini ta'siri
4. Go'sht mahsuldorligiga jinsining ta'siri
5. Go'sht mahsuldorligiga garmonal preparatlarni ta'siri

Mavzu bo'yicha talabalarning nazariy bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar mazmuni.

Qoramollarning go'sht mahsuldorligiga ta'sir yetuvchi omillar ta'sirlariga oid ma'lumotlar tavsiya yetilgan adabiyotlar, ilmiy maqolalar, internet tizimi yordamida xar bir talaba tomonidan refaratlashtiriladi. Keltirilgan ma'lumotlar tahlil qilinadi, savollarga javob beriladi.

Uslubiy maslahatlar

Qoramol go'shti Respublikamizda yetishtiriladigan jami go'shtni salmoqli qismini (65 %) tashkil qiladi. Uning tarkibida odam organizmi uchun zarur bo'lgan hamma oziqa moddalari- oqsillar, yog'lar, uglevodlar, mineral tuzlar va vitaminlar mavjud. Qoramol go'shti eng avvalo oqsil manbai sifatida katta ahamiyatga yega.

Qoramollarning go'sht mahsuldorligi ularning morfologik va fiziologik xususiyatlari bilan bog'liq. Bu xususiyatlar irsiyat, ularni o'stirish davridagi oziqlantirish va saqlash sharoiti ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi. Qoramollarning go'sht mahsuldorligi miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari bilan xarakterlanadi.

Miqdoriy ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi: tirik vazni, go'sht nimtalarini vazni, ichki yog'i, birinchi va ikkinchi darajali so'yim mahsulotlari, so'yim chiqimi. Sifat ko'rsatkichlariga go'sht bo'laklarini tarkibi, morfologik tarkibi, go'shtning navlari, kimyoviy tarkibi va kalloriyasi kiradi. Qoramollarning go'sht mahsuldorligini baholashda har bir kg qo'shimcha vaznga oziqa sarfini, tez yetiluvchanligini xisobga olish katta ahamiyatga yega.

Tez yetiluvchanlik deb, ma'lum davr ichida kunlik, mutloq va nisbiy o'sish ko'rsatkichida yosh mollarni o'sish jadalligiga aytiladi. Tez yetiluvchanlik yosh mollarni go'sht uchun so'yish muddatlarini aniq belgilash va ko'p miqdorda sifatli go'sht olishni aniqlashda hisobga olinadi.

Mollar so'yilganda go'sht nimtalari va ichki yog'idan tashqari ovqat uchun ishlatiladigan ikkinchi darajali mahsulotlar, texnik va yendokrin xomashyolar olinadi. Ikkinchi darajali so'yim mahsulotlari ovqat uchun yaroqlik darajasi bo'yicha ikkita toifaga

bo'linadi: birinchi toifaga jigar, buyraklar, til, yurak, yelin, dumg'aza kabilar; ikkinchi toifaga katta qorin, o'pka, shirdon, taloq kabilar kiradi.

Qoramollarda boshqa hayvonlardan go'sht ishlab chiqarishda afzallik tomoni shundaki, bo'rdoqilash davrida 1 kg tirik vaznini oshirish uchun 1-1,5 kg yem oziqa sarflanadi, cho'chqalarga esa 2,5-3,0 kg yem sarflanadi.

Yevropa mamlakatlarida yosh mollarni go'shtini narxi katta yoshli mollarnikiga qaraganda 1,5 marta yuqori turadi.

Buyuk Britaniyada Friz zotli buzoqlarga 3 oyga qadar 1,2-1,3 s sut almashtirgich berilib, 120-125 kg vaznda so'yiladi. Boshqacha usulda 2 xaftaligida 55 kg ga yetkazib so'yiladi.

Fransiya va Germaniyada ham buzoq go'shtiga bo'lgan talab yuqori. Buzoqlarni so'yishdan 70-75 kg go'sht nimtalari olinadi. Uning narxi parranda go'shtidan xam qimmat turadi.

Kanadada buzoq go'shti yetishtirish uchun go'sht yo'nalishidagi buzoqlar 4-6 oyligida, Avstraliya va Yangi Zenlandiyada 30-40 kg tirik vaznda so'yiladi. Buzoq go'shti yetishtirish qimmat bo'lib, buyurtma asosida yetishtiriladi. Buning uchun har 100 bosh sigir va g'unajindan 100 boshdan buzoq olish kerak.

Hayvonlarni mutloq o'sish darajasi yoshiga, oziqlantirish darajasiga, jinsiga, zotiga bog'liq. Shuning bilan birgalikda go'shtining morfologik va kimyoviy tarkibi ham o'zgaradi. Turli yoshda so'yilgan mollarning go'shtida muskul, yog', suyak va biriktiruvchi to'qimalarni miqdori, shuningdek, qimmatli va qimmasiz oqsillarni nisbati ham turlicha bo'lib, mos holda go'shtni oziqaviy qimmat ham xar xil bo'ladi.

Mustaqil ishlash uchun savollar

1. Go'sht mahsuldorligiga oziqlantirish tipini va darajasini ta'siri
2. Go'sht mahsuldorligiga saqlash sharoitini ta'siri
3. Go'sht mahsuldorligiga zotini va tana tuzilishi tipini ta'siri
4. Go'sht mahsuldorligiga jinsining ta'siri
5. Go'sht mahsuldorligiga garmonal preparatlarni ta'siri

Mavzu bo'yicha foydalaniladigan adabiyotlar: 3,4,5,6,7,8, 12,16,21,24,28,30,33

5 - mavzu. Yosh qoramollarni o'stirish texnikasi va uni tashkil qilish

Reja:

1. Yembrionni ona qornida va tug'ilgandan so'ng rivojlanish davrlari
2. Ontogenezda to'qima va organlarning rivojlanishi, modda almashinish jarayonini o'zgarishi
3. Yosh qoramollarni maqsadga muvofiq o'stirish

Mavzu bo'yicha talabalarning nazariy bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar mazmuni

Yosh qoramollarni o'stirish texnikasi va uni tashkil qilishga oid ma'lumotlar tavsiya yetilgan adabiyotlar, ilmiy maqolalar, internet tizimi yordamida har bir talaba tomonidan refaratlashtiriladi. Keltirilgan ma'lumotlar tahlil qilinadi, savollarga javob beriladi.

Uslubiy maslahatlar

Qoramollarni sut va go'sht mahsuldorligini shakllanishida ota-onadan o'tgan irsiy xususiyatlarni to'liq namoyon bo'lishida tashqi sharoitni ta'siri katta ayniqsa, yosh qoramollarni maqsadga muvofiq o'stirish va ulardan foydalanish sharoiti juda muhim hisoblanadi. Yosh organizm tez o'zgaruvchan bo'lib, unga maqsadli ta'sir ko'rsatish bilan istalgan tomonga o'zgartirish mumkin. Yosh organizmga maqsadli ta'sir ko'rsatish va shu asosda mahsuldorlikni shakllantirish, yembrionni ona qornida va tug'ilgandan so'ng rivojlanish qonuniyatiga asoslanmog'i lozim. Hayvonlarni individual rivojlanish qonuniyatini zootexniya fanini yirik namoyondalari G.A.Shmidt, P.D.Pshinichniy, K.B.Svechin, N.P.Chervinskiy va boshqalar o'rganishgan.

Yembrionni ona qornida rivojlanishi quyidagi davrni o'z ichiga oladi: ilk murtak, xomila oldi va xomila. Murtak davri qoramollarda 34 kun davom etadi. Bu davrda tuqimalar differensiyasi yuzaga kelib organizmni organ va sistemalari yuzaga kela boshlaydi. Homila oldi davri esa 26 kun davom etadi.

Tug'ishgacha 2 oy qoldi deganda yembrion jadal o'sadi va kunlik o'sishi 300-400 grammni tashkil qiladi. Yembrion 5 oyligida 2-3 kg, 7 oyligida 12-16 kg, 9,5 oyligida (tuqqanda 25-40 kg keladi, zotiga qarab). Sigirni bug'ozligini so'nggi 2-2,5 oyligida xomila 18-24 kg ga kattalashadi va tug'ilgan buzoqni og'irligini 2/3 qismini tashkil qiladi.

Sut va sut-go'sht yetishtiradigan xo'jaliklarda buzoqlarni o'stirish kelajakda sog'lom va ko'p yillar mobaynida ko'p sut berishga qobiliyatli sigirlar yetishtirishga qaratilishi kerak.

Qa'tiy qilib aytganda deydi- Ye.A.Bogdonov, olinadigan buzoqlarni kelajakda istalgan mayilda o'stirish ona qornidagi davrda beriladigan parvarishga bog'liq. Molning kelajakda sog'lom, kasal, zaif bo'lishiga va boshqa xususiyatlarga shu davrda asos solinadi. Chunki, aynan tanasida jinsiy yelementlarni shakllantirishda, bu hodisalar yembrion rivojlana boshlaganda va hatto otalangungacha ro'y bersada kelgusida tug'iladigan hayvonning taqdiri uchun befarq yemas.

Qoramollarning tug'ilgandan so'nggi rivojlanishi quyidagi davrlarni o'z ichiga oladi: yendi tug'ilgan, sut, jadal o'sish va jinsiy yetilish, mahsuldorligini jadal shakllanishi, yetuklik va mahsuldorligini gullagan (ko'paygan) davri va qarilik davrlariga bo'linadi. Ushbu mavzu talabalarda, kelajakda mahsuldor podalar yaratish yo'llari xaqida ko'nikma xosil qiladi.

Mustaqil ishlash uchun savollar

1. Yembrionni ona qornida va tug'ilgandan so'ng rivojlanish davrlari
2. Ontogenezda to'qima va organlarning rivojlanishi, modda almashinish jarayonini o'zgarishi
3. Yosh qoramollarni maqsadga muvofiq o'stirish

Mavzu bo'yicha foydalaniladigan adabiyotlar: 3,4,5,6,7,8, 10,12,15,16,24,28,29,33

6 - mavzu. Nasldor buqalarni sut davridan so'ng o'stirish

Reja:

1. Yosh mollarni parvarishlash texnologiyasi
2. Yosh mollarni o'stirish rejalari
3. Nasldor buqalarni oziqlantirish va saqlash
- 4.

Mavzu bo'yicha talabalarning nazariy bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar mazmuni

Nasldor buqalarni sut davridan so'ng o'stirishga oid ma'lumotlar tavsiya yetilgan adabiyotlar, ilmiy maqolalar, internet tizimi yordamida har bir talaba tomonidan refaratlashtiriladi. Keltirilgan ma'lumotlar tahlil qilinadi, savollarga javob beriladi.

Uslubiy maslahatlar

Sut davridan so'ng nasldor buqachalarni boqish va asrash ularni suyagini, muskullarini va ichki organlarini jadal rivojlanishiga qaratilishi kerak.

Ularni jadal boqib 750-800 g kunlik o'sishiga yerishish lozim. Agar shunday tarzda xo'jalikda boqilsa ulardan 14-16 oylik yoshidan urug'lantirish ishlarida foydalansa bo'ladi.

Buqachalarni rasioni tarkibi boshqa mollarnikidan farq qiladi, urg'ochi tanalarga nisbatan ularni rasioni tarkibida yem oziqalar ko'p , shirali oziqalar kam bo'ladi. Molxonada asrash davrida o'stirish jadalligiga qarab kuniga xar 100 kg tirik vazniga 1,7-2 kg pichan, 0,5 kg o't uni yoki donador oziqa, 0,8-1,0 kg yem oziqalar beriladi.

Rasionini to'yimlilik bo'yicha (oziqa birligi hisobida) pichan 45-50 %, o't uni va donador oziqalar 10-15 %, yem oziqalar 45-50 % bo'ladi. Bunday tipda oziqlantirish ularda kechadigan modda almashinuvi bilan bog'liq bo'lib, suyagini shakllanishida va yoshligidanoq jinsiy yetilishida katta ahamiyatga yega.

Nasldor buqachalarni me'yorda o'sishi va rivojlanishini ta'minlash uchun har kuni uzoq masion berish kerak. Agar buqachalar jadal boqilib, masion berilmasa yoki kam berilsa ularda organ va to'qimalarni rivojlanishida disproporsiya (nomutanosiblik) yuzaga keladi, tanasida ko'p yog' to'plab bo'rdoqilash kondisiyasiga o'tib ketadi. Bu holat ularni ishlab chiqarish qobiliyatini pasaytiradi, bo'sh konstitusiyali bo'lib shakllanishiga sabab bo'ladi. Agar xo'jalikda yoz oylari yaylovda boqish va asrash ko'zda tutilsa, ular 5-6 oyligidan boshlab yaylovda alohida guruh qilib boqiladi. Lagerlarda asralganda yog'och va taxtadan xar xil to'siqlar, oxurlar qilinib, ayvonlar moslashtirilishi kerak.

Mustaqil ishlash uchun savollar

1. Yosh mollarni parvarishlash texnologiyasi
2. Yosh mollarni o'stirish rejalari
3. Nasldor buqalarni oziqlantirish va saqlash

Mavzu bo'yicha foydalaniladigan adabiyotlar:3,4,5,6,7,8,10,11,14,18,22,23,28,
29,31,33

7 – mavzu. Sigirlarni sog'ish va sutni sifatini nazorat qilish

Reja:

1. Sigirlarni qo'lda sog'ish
2. Sigirlarni mashinada sog'ish
3. Sog'ish uskunalari va apparatlari
4. Sog'ish uskunalarini baxolash
5. Sifatli sut olish va unga dastlabki ishlov berish

Mavzu bo'yicha talabalarning nazariy bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar mazmuni

Sigirlarni qo'lda sog'ish, Sigirlarni mashinada sog'ish, sog'ish uskunalarini va apparatlari, sog'ish uskunalarini baxolash, sifatli sut olish va unga dastlabki ishlov berishga oid ma'lumotlar tavsiya yetilgan adabiyotlar, ilmiy maqolalar, internet tizimi yordamida har bir talaba tomonidan reферatlashtiriladi. Keltirilgan ma'lumotlar taxlil qilinadi, savollarga javob beriladi.

Uslubiy maslahatlar

O'sib borayotgan axolini sut va sut maxsulotlariga bo'lgan talabini qondirish uchun rejali ravishda sut ishlab chiqarishni ko'paytirish talab qilinadi. Buni amalga oshirish uchun mollarni bosh sonini ko'paytirish bilan birga, sigirlarni sut maxsuldorligini istiqbolli texnologiya asosida oshirish katta ahamiyat kasb etadi. Sut yo'nalishidagi qoramolchilikni jadal texnologiya asosida rivojlantirish iqtisodiy jihatdan samarali xisoblanadi, chunki sigirlarni sut maxsuldorligini oshirish bilan unga oziqa sarfi, sutga kapital jamg'armalar, sutni tannarxi kamayadi.

2000kg sut beruvchi sigir 1 s sutga 1,3-1,35 s oziqa birligi, 3000 kg sut beruvchi sigir 1,1-1,15 s, 4000 kg sut beruvchi sigir 1,0-1,05 s, 5000 kg sut beruvchi sigir 0,9-0,95 s oziqa birligi sarflaydi. Sut maxsuldorligi 2000 kg dan 3000 kg ga oshsa, 1s sutga bo'lgan oziqa xarajati 18-20 % ga qisqaradi, mexnat unumdorligi 1,5 marta oshadi, 1 s sutning tannarxi 15-20 % ga kamayadi.

Dunyo qoramolchiligidagi amaliyot xam sut yo'nalishidagi qoramolchilikni jadal texnologiyada rivojlantirishni afzalligini ko'rsatmoqda.

Ko'p miqdorda sut sog'ib olish va uni samaradorligi mintaqani tabiiy-iqtisodiy sharoitiga, xo'jalikda ishlab chiqariladigan oziqa miqdoriga va sifatiga, sutning sotish narxiga sut ishlab chiqarish texnologiyasiga bog'liq bo'ladi.

Shuni yesdan chiqarmaslik kerakki sigirlarni parvarish qilishda kichkina xatoga yo'l qo'yilsa sut ishlab chiqarishni murakkab texnologiyasini zanjiri buziladi, natijada mollarni maxsuldorligi kamayadi, muddatidan barvaqt puchak bo'lib ketadi. Xozirgi sut yo'nalishidagi qoramolchilik mutaxassisdan zootexniya fani yutuqlarini chuqur o'rganishni talab qiladi. Ular bir jarayonni puxta bilishlari bilan birga ularni yagona

texnologik jarayonga birlashtirib hayvonlarni biologiyasiga salbiy ta'sir qilmasdan ularni maxsuldorligini ko'paytirishga yerishish lozim. Bunga sutchilikda sut ishlab chiqarish deyiladi.

Ayniqsa, sanoat texnologiyasi asosida sut ishlab chiqaradigan xo'jaliklarda xizmat qiladigan ishchi, sog'uvchi xar bir jarayonni nisbiy va ijobiy tomonlarini chuqur bilishlari, bu omillarni hayvonlar salomatligiga, maxsuldorligiga ta'sirini o'rganishlari lozim. Sutchilik fermasidagi xamma texnologik jarayon buzoq olishdan tortib to sigir qilib yetishtirgunga qadar bo'lgan yetapda yakuniy xulosa sut ishlab chiqarishga qaratiladi.

Fermalar mexanizasiyalashmagan bo'lsa sigirlarni sog'ish va oziqlantirish qo'lda bajariladi. Bitta sog'uvchi 13-15 bosh sigirni qo'lda sog'ib yiliga 30-40 tonna sut yetishtiradi. Buning uchun sog'uvchi 1 kunda 10-12 soat vaqt sarf qiladi.

Sanoat asosida sut ishlab chiqarishda asosiy qiyin operatsiyalarni mashina bajaradi, ularni YeVM boshqaradi. Lekin xar bir bo'limda xizmat qiluvchilarni javobgarligi oshadi. Sut sog'uvchi operator deb yuritila boshlandi, chunki operator hayvonlarni mashina yordamida parvarish qiladi, uning asosiy vazifasi mashinani boshqarish xisoblanadi.

Sigir-bu bir xil tezlikda ishlaydigan "stanok" xisoblanadi. Agar shu "stanok" doimiy ravishda oziqa xom ashyosi bilan ta'minlanib turilmasa u bekorga ishlaydi, ma'lum vaqtdan so'ng to'xtab qoladi. Shuning uchun xam sut sog'ish operatori sigirlarni sog'ishdan tashqari ularni anatomiya va fiziologiyasini yaxshi bilishlari kerak (yelinini holati, sutdan chiqishi, iyishi, otalanishi, kuyga kelishi kabilar).

Sanoat texnologiyasida sut ishlab chiqarilganda xamma ish jarayoni hayvonlarni biologik xususiyatlariga asoslangan xolda tashkil qilinadi. Hayvonlar bilan ishlash tartibiga rioya qilish xar bir ferma xodimi uchun asosiy qonun bo'lmog'i kerak.

Chorvachilik tarmog'ini ichida eng qiyini sut qoramolchiligi xisoblanadi. Sog'im sigirlarni maxsuldorligiga, fiziologik talabiga qarab oziqlantirish, mos keladigan saqlash-sistemasini topish, mashinalar yordamida sog'ish va parvarishlab arzon sut ishlab chiqarish eng qiyin xisoblanadi. Sigirlarning sut maxsuldorligi 17 % texnologik jarayonga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun sut maxsuldorligini ko'paytirishni asosiy yo'li sanoat texnologiyasiga o'tish xisoblanadi. Jadal sanoat texnologiyasini yelementlarini yaxshi o'rganish mutaxassislar uchun katta axamiyatga yega.

Ana shu sanab utilgan tadbirlar bevosita fermer va dehqon fermer xo'jaliklarida sut sog'ib olish texnologiyasini tarkibiy qismi xisoblanadi. U sutni ko'paytirish, ko'p buzoq olish va sigirlardan jadal foydalanishga bog'liqdir. Bu esa o'z navbatida tarmoqni sanoat texnologiyasiga o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Mustaqil ishlash uchun savollar

1. Sigirlarni qo'lda sog'ish
2. Sigirlarni mashinada sog'ish
3. Sog'ish uskunalari va apparatlari
4. Sog'ish uskunalarini baxolash
5. Sifatli sut olish va unga dastlabki ishlov berish

Mavzu bo'yicha foydalaniladigan adabiyotlar: 3,4,5,6,7,8, 16,17,19,20,31,33

8 – mavzu . Qoramollarni so'qimlash va yaylovda burdoqilash texnologiyasi

Reja:

1. So'qimlash va uning turlari
2. Qoramollarni yaylovda burdoqilash
3. Puchak qilingan katta yoshli mollarni suqimlash
4. Suqimlashda qo'llaniladigan ba'zi zootexnikaviy tadbirlar

Mavzu bo'yicha talabalarning nazariy bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar mazmuni

So'qimlash va uning turlari, qoramollarni yaylovda burdoqilash, puchak qilingan katta yoshli mollarni suqimlash, suqimlashda va ularni qayta ishlashda qo'llaniladigan ba'zi zootexnika tadbirlariga oid ma'lumotlar tavsiya yetilgan adabiyotlar, ilmiy maqolalar, internet tizimi yordamida xar br talaba tomonidan refaratlashtiriladi. Keltirilgan ma'lumotlar taxlil qilinadi, savollarga javob beriladi.

Uslubiy maslahatlar

Mollarni so'qimga boqish muddati uchta: boshlang'ich, asosiy va yakuniy davrlarga bo'linadi. So'qimga boqishning birinchi va ikkinchi davrlarida dag'al xashak, silos, senaj, yakuniy davrida ko'proq kuchli oziqalar beriladi.

So'qimga boqishni boshlang'ich davrida mollar tanasining protein, yog' va suv bilan boyishi hisobiga tirik vazni tez sur'atda ortib boradi. So'qimlashni ikkinchi davrida asosan yog' to'planadi va bu yog' to'qimalaridagi suvni haydab chiqaradi.

Beriladigan oziqalarni turiga suqimlashni qo'yidagi tiplari farqlanadi: xo'jalikda ishlab chiqariladigan oziqalarda so'qimlash (silos, senaj, ko'k o'tlar, yem oziqalar); oziq ovqat sanoati chiqindilarida suqimlash (jom, barda, myozga, paxta chiqindilari) Shuningdek, to'liq rasionli aralashma oziqalarda so'qimlash hozir keng tarqalgan. Agar oziqalarda protein moddasi yetmasa rasionni protein moddasi bilan tenglashtirish uchun oqsilsiz azot brikmalari mochevina (karbomid), ammoniy tuzlari qo'shib beriladi. Bu mollarni proteinga bo'lgan talabini 25-30 % ga qondiradi.

So'qimlashni qo'yidagi turlari bo'ladi:

Bardada suqimlash – aroq – pivo ishlab chiqarish sanoati chiqindilariga barda deyiladi. So'qimlashni dastlabki 7 -10 kunida katta yoshdagi mollarga kunlik 20-30 kg.dan, yosh mollarga 50 – 80 kg.dan, yosh mollarga 50-60 kg.dan beriladi. Bardani sutkaga uch marta beriladi, uni yaxshi iste'mol qilinishi uchun qirqilgan dag'al xashak qo'shiladi.

Bug'doy bardasi bilan suqilanganda suqimlash davrida har bir yuoshga 1 – 1,5 s, kartoshka bardasi bilan suqimlanganda 2 – 2 s yem oziqalar beriladi. Bardada kalsiy va qand yetishmasligi uchun bu moddalarga boy bo'lgan oziqalardan (arpa, makkajuxori, suli) va mel, trikalsiy fosfat bor (40-50 kg.) qo'shib beriladi. Bug'doy bardasi yaxshi siloslanadi, kartoshka brdasi bilan qo'shib siloslanganda 6-8 % maydalangan poya

qo'shiladi. Siloslangan barda bilan suqimlanganda mollar kunlik bir marta sug'oriladi. Siloslanmagan barda bilan suqimlanganda sug'orilmaydi. Suqimlash davrida kunlik har bir boshga bardadan tashqari 4-7 kg. dag'al xashak, 1-3 kg. yem oziqalar beriladi. Barda bilan suqimlashda bino va oxurlarni tozaligiga rioya qilish zarur. Mollarni yoshiga qarab bardada suqimlanganda sutkasiga 800-1000 g qo'shimcha vazn topish mumkin.

Mustaqil ishlash uchun savollar

1. So'qimlash va uning turlari
2. Qoramollarni yaylovda burdoqilash
3. Puchak qilingan katta yoshli mollarni suqimlash
4. Suqimlashda qo'llaniladigan ba'zi zootexnikaviy tadbirlar

Mavzu bo'yicha foydalaniladigan adabiyotlar: 3,4,5,6,7,8, 11,12,16,18,21,24,30,33

9 - mavzu: Qoramollarning terisi va qoramollardan ishchi kuchi sifatida foydalanish

Reja:

1. Qoramollarning teri mahsuldorligi
2. Qoramollardan ishchi kuchi sifatida foydalanish
- 3.

Mavzu bo'yicha talabalarning nazariy bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar mazmuni

Qoramollarning terisi va ishchi kuchi sifatida foydalanish masalalariga oid ma'lumotlar tavsiya yetilgan adabiyotlar, ilmiy maqolalar, internet tizimi yordamida har bir talaba tomonidan referatlashtiriladi. Keltirilgan ma'lumotlar tahlil qilinadi, savollarga javob beriladi.

Uslubiy maslahatlar

Qoramollardan sut va go'sht mahsulotlardan tashqari qo'shimcha mahsulotlar ham olinadi.

Dehqonchilik sohasi uchun ulardan organik o'g'it sifatida go'ng olinadi. Bundan tashqari engil sanoat uchun xomashyo hisoblangan eng sifatli terilar ham qoramolchilik sohasidan olinadi.

Qoramollarning terisini og'irligi va sifati ularning tirik vazniga, zotiga, konstitusion xususiyatiga, oziqlantirish va saqlash sharoitiga, yoshiga va jinsiga bog'liq bo'ladi. Yupqa va cho'ziluvchan teri buzoqlardan, yosh urg'ochi tanalardan, buqachalardan va ho'kizchalardan olinadi. Buqa va ho'kizlarni terisi qalin va dag'al

bo'lib og'ir navli teri xomashyosiga kiradi. Yosh sigirlardan yupqa va zich teri olinadi. Hayvonlarni yoshini oshib borishi bilan terining sifati o'zgaradi.

Qarri hayvonlarning terisini texnologik sifati pastlashib, dag'allashadi va cho'ziluvchanligi yo'qoladi. Yosh qoramollarni jadal o'sishi davrida tirik vaznining ortishi bilan terisining nisbiy og'irligi pasayadi. Sigirlarning terisi tirik vazniga nisbatan 6-8 % ni tashkil qiladi.

Yupqa teri yuqori sut maxsuldorligiga yega bo'lgan sigirlardan olinadi. Terining qalinligi hayvon tanasining turli joylarida turlicha bo'ladi: orqa va bel qismida, qorin va oyoqlarining terisiga nisbatan qalin bo'ladi. Shuning uchun eng qalin teri xomashyosi mollarning ustki qismidan olinadi. Oziqlantirish va saqlash sharoiti terining sifatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Past oziqlantirish darajasi va rasionlarning mineral moddalar bilan tenglashtirilmaganligi, terining mustahamligiga va qalinligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yoz vaqtlarida hayvonlar yaylovda asralsa sifatli teri olinadi. Agar mollar tegishli parvarish qilinmasa har xil teri kasalliklari kelib chiqishi mumkin (qichima, qo'tir va boshqalar). Bu kasalliklar terining sifatini pasaytirib yuboradi. Tabiiy iqlim sharoiti ham (havoning harorati, namligi, joyning tuzilishi, reliefi) teri sifatiga ta'sir ko'rsatadi.

Hayvonlar turli iqlim sharoitida urchitilganda terining yepidermis (shox), xaqiqiy teri va teri osti biriktiruvchi to'qimasi ning rivojlanish darajasi har xil bo'ladi. Quruq, issiq iqlim sharoitida terining shox qismi qalinlashadi, kapilyar qatлами ham qalinlashadi, teri osti biriktiruvchi to'qimasi kuchsiz rivojlanadi. Hayvonlar sovuq iqlim sharoitida urchitilganda teri osti biriktiruvchi to'qimasi kuchli rivojlanadi va unda yog' ko'p to'planadi, yepidermis yupqa bo'lib rivojlanadi. O'rtacha iqlim sharoitida o'stirilganda ulardan yupqa va zich teri olinadi.

Mustaqil ishlash uchun savollar

1. Terining sifati nimalarga bog'liq
2. Teri sanoatida terilar qanday navlarga bo'linadi

Mavzu bo'yicha foydalaniladigan adabiyotlar: 3,4,5,6,7,8, 10,12,14,21

10 - mavzu: O'zbekistondagi urchitiladigan rejali qoramol zotlari va ularni urchitish mintaqalari

Reja:

1. Sut yo'nalishidagi qoramol zotlari
(qora – ola, qizil cho'l, bushuyev)
2. Qo'shmahsuldor qoramol zotlari
(shvis)
3. Go'sht yo'nalishdagi qoramol zotlari
(santa – gertruda, aberdin – anguss, qozoqi oqbosh zotlari)

Mavzu bo'yicha talabalarning nazariy bilim va ko'nimalariga qo'yiladigan talablar mazmuni

O'zbekistondagi urchitiladigan rejali qoramol zotlari va ularni urchitish mintaqalari masalalariga oid ma'lumotlar tavsiya yetilgan adabiyotlar ilmiy maqolalar, internet tizimi yordamida har bir talaba tomonidan referatlashtiriladi. Keltirilgan ma'lumotlar tahlil qilinadi, savollarga javob beriladi.

Uslubiy maslahatlar

MDH ga kirgan mamlakatlarning hududi o'zining tabiiy iqlim geografik va iqtisodiy sharoitini turli tumanligi bilan harakterlanadi. Mintaqa dahalarining sero't yaylov va boshqa turdagi oziqalarni yetarli bo'lgan joylarida qoramollarning o'sha sharoitga yaxshi moslashgan zot va guruhlari urchitiladi. Xo'jaliklarda qoramollarning mahsuldorlik va nasldordik sifatlarini yaxshilash masalasida qoramol zotlarini va dahalarda to'g'ri joylashtirish katta ahamiyat kasb etadi.

Qoramol zotlarini tumanlashtirish prinsiplari asosida ularning yaratilish sharoiti va shakllanganlik darajasi yotadi. har bir qoramol zoti o'zini geografik tarqalish mintaqalariga yega, ular shu mintaqaning muhit sharoitiga yevolyusiya prosessida moslashadi.

O'zbekistonda qoramolchilikni sifat jihatdan yaxshilash masalasida ko'p ishlar qilindi va qilinayapti.

hozirgi vaqtda urchitilayotgan qoramollarning barchasi zotli bo'ldi. Qoramollar podasining 32 foizidan ko'prog'i sof zotli hisoblanadi. hozir O'zbekistonda 15 ga yaqin qoramol zotlari va zot guruhlari urchitilmoqda. Ular ichida qora-ola, bushuyev qizil cho'l, shvis zotlari yuqori maxsuldorli bo'lib, turli geografik mintaqalarda keng tarqalgan, ular yaxshi iqlimlashish xususiyatiga yega .

O'zbekistonning mintaqalariga qoramollarni rejali joylashtirish maqsadida ularni tumanlashtirish rejasi tuzilgan (1997 y). Shu rejaga asosan har bir viloyat xududiga sharoitining talabiga javob beradigan 2-3 ta zot urchitish uchun ajratilgan. Bu zotlar belgilangan mintaqada muvaffaqiyatli urchitilishi bilan birga usha xududdagi mahalliy mollarni yaxshilovchi ham hisoblanadi. Mintaqalarni ixtisoslashuvi, sohalarni jadallashtirish, yangi yerlarni o'zlashtirish, progressiv texnologiyani joriy qilish natijasida zotlarni tumanlashtirish rejalarini o'zgartirish mumkin.

Tabiiy yaylovlarga boy bo'lgan mintaqalarda sergo'sht qoramol zotlari urchitiladi. Go'sht yetishtirishga ixtisoslashgan bu mintaqalarda joylashgan aholini sut va sut mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish uchun shu sharoitga yaxshi moslashgan sersut va sut –go'sht beradigan zotlar ham qisman urchitiladi. Sut ishlab chiqarishga moslashgan maxsus xo'jaliklarda, sariyog' va pishloq ishlab chiqariladigan mintaqalarda asosan qora-ola va qizil cho'l zotlaridan ko'proq foydalanilmoqda. Bunday xo'jaliklarning ko'pchiligida sanoat tipidagi chatishtirish uchun sergo'sht zotli buqalar joylashtirilgan. Olingan duragay mollar go'sht uchun burdoqilanadi.

O'zbekiston hududi qoramollarni urchitish bo'yicha shartli ravishda 4 mintaqaga bo'linadi:

- 1. Sug'oriladigan mintaq.** Bu mintaqalarga asosan paxta yekiladigan tumanlar kiradi. Qoramollarning sersut va sut-go'sht beradigan zotlari bu tumanlarda joylashgan (qora-ola, qizil cho'l, shvis, bushuyev kabilar).
- 2. Lalmikor dehqonchilik mintaqasi .** Bu mintaqalarga tog'li va tog' oldi yaylovlari boshqoli yekinlar yekiladigan yarim cho'l yerlar kiradi. Qoramollarni sergo'sht va sut-go'sht beradigan zotlari urchitiladi.(shvis, qozoqi oq bosh, aberdin-anguss, santa-gertruda kabilar).
- 3. Shahar atrofi mintaqasi.** Bu mintaqaga shaharlar atrofidagi tumanlar kiradi. Bu tumanlarda yaylovlar yo'q, mollar yil buyi molxonalarda asraladi. Sog'ib olingan sut qayta ishlanmasdan shahar aholisiga sotiladi. Bu tumanlarda qoramollarning sersut zotlari urchitiladi (qora-ola, qizil cho'l, bushuyev, shvis, kabilar)
- 4. Saxro mintaqasi.** Bu mintaqada dehqonchilik qilinmaydi, suv tanqis bo'lganligi sababli oziqa yekinlarini yekish imkoni yo'q. (qoraqum, qizil qum, taqir dasht yerlari). Bunday yaylovlarda qoramollarni urchitish imkoniyati yo'q, qorako'lichilik va tuyachiklikni yaxshi rivojlantirish mumkin.

O'zbekiston qishloq va suv xujaligi vazirligining 1997 yil 65-son bo'yru'g'iga asosan viloyatlarda qoramol zotlarini joylashtirish rejasi.

№	Viloyatlar	Z o t l a r		
		Sut yo'nalishdagi	Sut-go'sht yo'nalishdagi	Go'sht yo'nalishdagi
1	Qoraqalpog'iston	qora-ola, qizil cho'l, bushuyev	-	santa-gertruda, qozoqi-oqbosh
2	Andijon	qora-ola, qizil cho'l	shvis	-
3	Buxoro	qizil cho'l, qora-ola	-	-
4	Jizzax	qora-ola, qizil cho'l	shvis	santa-gertruda, qozoqi-oqbosh
5	Qashqadaryo	qizil cho'l,	shvis	aberdin-anguss

		qora-ola		
6	Namangan	qora-ola	shvis	-
7	Navoiy	qizil cho'l, qora-ola	-	-
8	Samarqand	qora-ola, qizil cho'l	shvis	-
9	Surxondaryo	qora-ola	shvis	aberdin-anguss
10	Sirdaryo	bushuyev, qora-ola	shvis	-
11	Toshkent	qora-ola	shvis	-
12	Farg'ona	qora-ola		-
13	Xorazm	qizil cho'l, qora-ola	-	qozoqi-oqbosh

Mustaqil ishlash uchun savollar

1. Sut yo'nalishidagi qoramol zotlari (qora – ola, qizil cho'l, bushuyev)
2. Qo'shmahsuldor qoramol zotlari (shvis)
3. Go'sht yo'nalishdagi qoramol zotlari (santa – gertruda, aberdin – anguss qozoqi oqbosh zotlari)

Mavzu bo'yicha foydalaniladigan adabiyotlar:3,4,5,6,7,8,9,10,12,14,18,21,
24,28,29,30,33

11 - mavzu. O'zbekistonning mahalliy zebusimon qoramollari va ularni boshqa zotlar bilan duragaylari

Reja:

1. Mahalliy zebusimon qoramollar
2. MZQ ni shvis zoti bilan duragaylari (shvis zebusimon qoramollar)
3. MZQ ni sersut qoramol zotlari (qora-ola, qizil -cho'l) bilan duragaylari
4. MZQ ni sergusht qoramol zotlari (qozoqi oq bosh, santa-gertruda, aberdin-anguss) bilan duragaylari

Mavzu bo'yicha talabalarning nazariy bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar mazmuni

Mahalliy zebusimon qoramollar, MZQ ni shvis zoti bilan duragaylari (shvis zebusimon qoramollar), MZQ ni sersut qoramol zotlari (qora-ola, qizil cho'l) bilan duragaylari, MZQ ni sergusht qoramol zotlari (qozoqi oq bosh, santa-gertruda, aberdin-anguss) bilan duragaylariga oid ma'lumotlar tavsiya yetilgan adabiyotlar, ilmiy maqolalar, internet tizimi yordamida har bir talaba tomonidan refaratlashtiriladi. Keltirilgan ma'lumotlar tahlil qilinadi, savollarga javob beriladi.

Uslubiy maslahatlar

Zebusimon qoramollar juda qadimiy kelib chiqish tarixiga yega. Qazilma materiallari zebularni O'rta osiyoda yeramizdan 1000-1200 yil ilgari paydo bo'lganligini isbotlaydi. Demak, O'rta Osiyodagi dastlabki mahalliy qoramollar Hindiston zebusi bilan yeramizdan 1000-1200 yil ilgari, yeron zebusi bilan taxminan VII asrda, Mug'uliston qoramoli bilan XIII asrda (ya'ni O'rta Osiyo hududini mug'ullar bosib olgandan so'ng) chatishtirilgan.

Yashash hududi, xo'jalik uchun foydali belgilari, eksterer xususiyatlari va ayrim mahsuldorlik belgilari bo'yicha zebusimon qoramollar uchta populyasiyaga: kurama (o'zbek), xuroson (turkman) va talishin (ozarbayjon) bo'linadi. B.S.Sivchikning ma'lumotiga ko'ra O'zbekistonning zebusimon sigirlarining yag'rin balandligi o'rtacha 106 sm (83-123 sm), xuroson populyasiyasida-106,2 (88-127 sm), talishin populyasiyasida- 106,6 sm (95-117 sm) ni tashkil qilgan.

Har uchala populyasiyadagi mollarning o'rtacha mahsuldorlik ko'rsatkichlari bir-biridan juda kam farq qiladi. Mahalliy zebusimon qoramollarning sifatini yaxshilashda uning, genetik tipini o'zgarishida 1926-1927 yillardan boshlab keltirila boshlangan shvis va qizil cho'l zotlarini ta'siri katta bo'ldi. Bundan tashqari keyingi 40 yil mobaynida mahalliy zebusimon qoramollari Latviya qo'ng'ir, Karpat qo'ng'ir, qora-ola, yestoniya qizil, qozoqi oq bosh, santa-gertruda, aberdin-anguss zotlari bilan chatishtirilishi, ularni genetik holatini o'zgartirib yubordi. Bunchalik ko'p madaniy zotlarni mahalliy mollar bilan sistemasiz pala-partish chatishtirilishi naslchilik ishlarini yaxshilash o'rniga

aksincha, unga chalkashlik kiritdi, bu esa mahalliy qoramollarning foydali xususiyatlarini yo'qolib ketishiga sabab bo'ldi.

Zotlarni hisobga olish ma'lumotlari bo'yicha xozir Respublikamiz xududida hammasi bo'lib 1% zebusimon mollar qolgan. (Qashqadaryo va Xorazm viloyatlarida).

Zebusimon qoramollarning bosh suyagi tor, chuziq bo'lib, shoxlarining qisqa va ingichka o'qi bor. Bosh suyagining tuzilishiga ko'ra u Hindiston zebusi tipiga kiradi.

Keyingi yekstrimal iqlim sharoitida suvning yetishmasligi yaylovlarning kamo't, sifasiz bo'lganligi o'tmishda O'zbekiston chorvachiligini bir tomonlama (asosan qorako'lchilik) rivojlanishiga sabab bo'ldi. Oz miqdordagi sug'oriladigan yerlarda otlar uchun beda va lalmikor yerlarda arpa yekiladi. Bunday sharoitda qoramollar podasini ko'paytirish va maxsuldorligini oshirish mumkin yemas yedi, asosan ishchi hayvon sifatida urchitiladi. Sigirlarning o'rtacha tirik vazni 200-250 kg bo'lib, laktasiyada 500-600 kg sut beradi. Bu sutni taxminan 250 kg buzog'ini o'stirish uchun sarf bo'ladi.

Ularni yekstremal sharoitda suyagi rivojlangan orqasi tor va qiya, ko'kragi tor, sutdorlik, go'shtdorlik belgilari zaif rivojlangan.

Mustaqil ishlash uchun savollar

1. Mahalliy zebusimon qoramollar
2. MZQ ni shvis zoti bilan durugaylari (shvis zebusimon qoramollar)
3. MZQ ni sersut qoramol zotlari (qora-ola, qizil cho'l) bilan durugaylari
4. MZQ ni sergusht qoramol zotlari (qozoqi oq bosh, santa-gertruda, aberdin-anguss) bilan durugaylari

Mavzu bo'yicha foydalaniladigan adabiyotlar: 3,4,5,6,7,8,9,10,12,14,18,21,24,28, 29,30,33

12 - mavzu. Qoramollarni tanlashda xisobga olinadigan seleksion belgilar

Reja:

1. Sut va sut-go'sht yo'nalishidagi qoramollarni tanlashda xisobga olinadigan seleksion belgilar.
2. Go'sht yo'nalishidagi qoramollarni tanlashda hisobga olinadigan seleksion belgilar.

Mavzu bo'yicha talabalarning nazariy bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar mazmuni

Sut va sut-go'sht yo'nalishidagi qoramollar hamda go'sht yo'nalishidagi qoramollarni tanlashda xisobga olinadigan seleksion belgilariga oid ma'lumotlar tavsiya yetilgan adabiyotlar, ilmiy maqolalar, internet tizimi yordamida xar bir talaba tomonidan refaratlashtiriladi. Keltirilgan ma'lumotlar taxlil qilinadi, savollarga javob beriladi.

Uslubiy maslahatlar

Qoramollarning sut mahsuldorligini, tez yetiluvchanligini, go'sht mahsuldorligini oshirish qadimdan tanlash va juftlash natijasida amalga oshirilgin. Seleksiya ishlari qancha yuqori darajada olib borilsa, zot shuncha takomillashgan hisoblanadi.

Har bir zot ichidagi yuqori mahsuldorli mollar parvarish, asrash va oziqlantirishga talabchan bo'ladi. Shuning uchun ham seleksiya ishlari oziqlantirish va saqlash sharoiti bilan uyg'unlashtirib olib boriladi.

Zootexnika amaliyotida qoramollarni baholash sistemasi bir necha yetapda olib boriladi. Dastlab qoramollarni kelib chiqishi bo'yicha genotipi aniqlanadi, so'ng fenotip ko'rsatkichlari-rivojlanishi, serpushtligi, mahsuldorligi va uning sifati, eksterer va konstitusiyasi, oziqani qoplanishi kabilar, eng so'ngida avlodlarining sifati bo'yicha baholanadi. Baxolashning hamma yetaplarida ularning seleksion- genetik parametrlari va eksterer ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

Qoramolchilikda tanlash va juftlash nasldorlik, mahsuldorlik sifatlarini yaxshilashda bir biriga bog'liq bo'lgan sistema hisoblanadi. Ular o'zgaruvchanlik va genetik omillar bilan bog'liq bo'lgan xo'jalikka foydali belgilarning qonuniyatlariga asoslangan.

Tanlash seleksiyaning birinchi vazifasi bo'lib, tanlagan buqa va sigirlarni o'zaro otalantirish uni ikkinchi vazifasi –juftlash deyiladi. Shu tartibda seleksiyaning olib borish podada yaxshi mollarni saqlash, yomonlarini puchak qilish imkoniyatini yaratadi. Har bir bo'g'inda mollar yaxshilanib takomillashib boraveradi.

Xozirgi vaqtda sigirlarni kelgusidagi mahsuldorligini oldindan bashorat qilish 3 yo'nalishda amalga oshiriladi: qoramollarni yoshligidanoq nasldorlik va xo'jalikka foydali sifatlarini aniqlash maqsadida mahsuldorligini bashorat qilish, seleksiya samaradorligini va chatishtirishdan olingan avlodlarining mahsuldorligini oldindan aniqlash bilan bog'liq bo'lgan eksterer, morfologik, bioximik, fiziologik kabi belgilari o'zaro va irsiy omillar bilan bog'liqligini, ikkinchidan sut mahsuldorligi va uning sifat belgilarini o'zaro bog'liqligini aniqlash maqsadida ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish talab qilinadi. Shular natijasida shunday test yaratish kerakki, uning yordamida nasldor hayvonlarni

samarali tanlash usuli yaratilsin. Chunki, qoramollarning mahsuldorligini shakllanishi uzoq vaqtni talab qiladi, bu davrda mahsuldorligini o'zgarishiga juda ko'p tashqi omillar ta'sir ko'rsatadi, bu ta'sirlar o'z navbatida tanlash samaradorligini o'zgaruchanligiga olib keladi va qoramollarni umumiy baholash samaradorligini murakkablashtiradi. Go'sht yo'nalishidagi zotlar sof xolda urchitilishi bilan bir qatorda sut yo'nalishidagi qoramollardan bo'rdoqibor mollar olish maqsadida ular bilan chatishtiriladi. Bu munosabat ularni sut yo'nalishidagi qoramolchilik bilan uyg'unlashtiradi. Shuning uchun ularni urchitishdagi talablar mahsuldorlik bo'yicha tanlash va baholashga qaratilishi lozim.

Mustaqil ishlash uchun savollar

1. Sut va sut-go'sht yo'nalishidagi qoramollarni tanlashda xisobga olinadigan seleksion belgilar
2. Go'sht yo'nalishidagi qoramollarni tanlashda hisobga olinadigan seleksion belgilar

Mavzu bo'yicha foydalaniladigan adabiyotlar: 3,4,5,6,7,8, 9,10,11,12,13,15,17,18, 22,23,28,32,33

13 – mavzu. Buqa va sigirlarning prepotentligini aniqlash

Reja:

1. Sigirlarning prepotentligini baholash
2. Buqalarni prepotentligini baholash

Mavzu bo'yicha talabalarning nazariy bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar mazmuni

Buqa va sigirlarning prepotentligini aniqlashga oid ma'lumotlar tavsiya yetilgan adabiyotlar, ilmiy maqolalar, internet tizimi yordamida har bir talaba tomonidan referatlashtiriladi. Keltirilgan ma'lumotlar tahlil qilinadi, savollarga javob beriladi.

Uslubiy maslahatlar

Chorvachilikda ko'pgina miqdoriy belgilarning urtacha yoki oraliq naslga berilishi aniqlangan. Ya'ni bolalarining irsiyati ota va onadan teng miqdorda naslga berilishi isbotlangan. Lekin bu qoidani hamma hollarda ham amalga oshavermasligi kuzatilgan. Bolalari belgilarining rivojlanishiga ota yoki onaning ta'siri kuchliroq bo'lishi mumkin. Ba'zi bolalarining ko'pchiligi yoki otasiga yoki onasiga ko'proq o'xshashi aniqlangan.

Hayvonlarning o'z irsiy belgilarini har qanday juftlashtirishda ham avlodlariga mustahkam o'tish qobiliyatiga prepotentlik deyiladi.

Prepotentlik belgilarning dominantligi, gomozigotlikning oshishi, maqsadga muvofiq tanlash va juftlash yordamida kelib chiqadi.

Chorvachilikda prepotent hayvonlarni aniqlash va ulardan seleksiyada foydalanish katta samara beradi. Prepotent hayvonlar bir tekis, o'xshash avlodlar beradilar va ularning belgilari naslga mustahkam beriladi.

Ko'pgina zotlar va podalarning shakllanishida prepotent urg'ochi hayvonlarning yoki oilalarning roli katta bo'lgan. Masalan, Simmental zotining yaratilishida Chernigov oblastidagi "Trostyane" naslchilik zavodida yaratilgan Vata laqabli sigirning oilasi sersut va seryog'ligi bo'yicha muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

A.P.Beguchev va G.P.Legoshinlar ma'lumotiga ko'ra Leningrad viloyatidagi "Lesnoye" naslchilik zavodida qora-ola zotli Chalma laqabli sigirdan to'rt bo'g'in davomida olingan 12 ta sigirlar sutining yog'iligi o'rtacha 4,07 % bo'lgan.

Har bir hayvonning prepotentlik darajasi har xil bo'lishi mumkin. Naslli yerkak hayvonlarning prepotentligini aniqlash uchun bir qancha usullar ishlab chiqilgan.

1. S.A.Ruzskiy (1961) prepotentlikni aniqlash uchun buqaning qizlari bilan ularning onalari mahsuldorligi orasidagi korrelatsiya koeffitsiyentni aniqlashni tavsiya qiladi. Agar bunda korrelatsiya koeffitsiyent qanchalik kichik bo'lsa buqaning prepotentligi shuncha yuqori bo'ladi.

2. F.F.Yeysner (1964) buqalarning prepotentligini aniqlash uchun ularning qizlari bilan onalarining mahsuldorligi orasida ayrimdan foydalanib quyidagi formulani taklif qiladi:

$$IP = \frac{(D-M)^2}{(D-D_{o'r})} ; \text{ bunda}$$

Ip – prepotentlik indeksi; M – onalarini ko'rsatkichi; D - qizlarini ko'rsatkichi; D.o'r -barcha qizlarning o'rtacha ko'rsatkichi;

D.T.Vinnichuk (1964) prepotentlikni aniqlash uchun onalarning mahsuldorligidan, mahsuldorligi yuqori bo'lgan qizlarining sonini jami qizlar soniga bo'lishni tavsiya qilgan:

$$IP = \frac{\text{Onalarini mahsuldorligidan ustun bo'lgan qizlarini soni}}{\text{Jami qizlarini soni}} \times 100$$

4. A.P.Soldatov, L.K.Yernst (1968) prepotentlikni aniqlash uchun naslli buqalar qizlarini mahsuldorligining o'zgaruvchanlik kayeffisiyentini (S) aniqlashni taklif qilgan. Sut miqdori bo'yicha S –10-30 % bo'lsa buqalar prepotent, S- 30 % dan katta bo'lsa neytral bo'ladilar.

5. F.F.Yeysner (1970) prepotentlikni aniqlash uchun quyidagi formulani taklif qiladi:

$$P = 1 - \frac{D_l - D_x}{M_n - M_x} ; \text{ bunda}$$

Ml – yaxshi onalarining kursatkichi.

Mx – kam maxsulot beradigan onalarining kursatkichi.

D l - yaxshi onalar qizlarining kursatkichi

Dx- kam maxsulot beradigan onalar qizlarining kursatkichi.

Mustaqil ishlash uchun savollar

1. Sigirlarning prepotentligini aniqlash
2. Buqalarni prepotentligini aniqlash

Mavzu bo'yicha foydalaniladigan adabiyotlar: 3,4,5,6,7,8, 10,11,13,15,22,23,25,29, 32,33

14 – mavzu. Buqalarni bonitirovka qilish

Reja:

1. Buqalarni kelib chiqishi bo'yicha baholash va tanlash
2. Buqalarni o'zini maxsuldorligiga qarab baholash va tanlash
3. Buqalarni avlodlarini sifatiga qarab baholash va tanlash
4. Buqalarning qizlarining mahsuldorligini tengdoshlarini mahsuldorligi bilan solishtirib baholash va tanlash

Mavzu bo'yicha talabalarning nazariy bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar mazmuni

Naslli buqalarni baholash va tanlash masalalariga oid ma'lumotlar tavsiya yetilgan adabiyotlar, ilmiy maqolalar, internet tizimi yordamida har bir talaba tomonidan refaratlashtiriladi. Keltirilgan ma'lumotlar tahlil qilinadi, savollarga javob beriladi.

Uslubiy maslahatlar

Nasldor buqalarning poda sifatiga ta'siri sigirlarnikiga qaraganda bir necha marta ortiq bo'ladi, ulardan bir yilda bir necha mingdan ortiq avlod olish mumkin.

Shuning uchun xam mashxur rus olimi A.A.Armfeld (1840-1906) bundan 100 yil burun "Bitta yaxshi buqa podani yarmiga teng" degan yedi.

Hozirgi vaqtda sun'iy urug'lantirishning keng yo'lga qo'yilishi sifatli buqalardan maksimal foydalanish imkoniyatini ochib beradi.

Zootexnika amaliyotida buqalarni nasldorlik sifati bo'yicha tanlash va baxolash pog'onali usulda amalga oshiriladi. Birinchi pog'onada kelib chiqishi, ona ajdodlarining mahsuldorligi va nasldorlik xususiyatlari, otasi va bobosining qizlarining, otasini opa va singillarini mahsuldorligi hisobga olinadi.

Ikkinchi pog'onada tanlangan buqalar o'sish jadalligi, rivojlanishi, tana tuzilishi va ishlab chiqarish qobiliyati bo'yicha baholanadi.

Uchinchi pog'onada ularning sifati avlodlarining mahsuldorligiga qarab aniqlanadi.

Sut yo'nalishidagi qoramolchilikda buqani baholash uchun birinchi navbatda uning qizlarining sut maxsuldorligiga qaraladi. Shuning bilan birga hozirgi vaqtda ko'p mamlakatlarda sut va qo'shmaxsuldor yo'nalishdagi buqalarning o'g'illarini go'sht mahsuldorligi bo'yicha ham baholanadi.

Buqalarni kelib chiqishi bo'yicha baholash va tanlash. Bu belgi bo'yicha tanlashda buqani shajarasida ajdodlarida xisobga olinadigan seleksion belgini rivojlanganlik darajasi hisobga olinadi.

Mustaqil ishlash uchun savollar

1. Buqalarni kelib chiqishi bo'yicha baholash va tanlash
2. Buqalarni o'zini maxsuldorligiga qarab baxolash va tanlash
3. Buqalarni avlodlarini sifatiga qarab baxolash va tanlash
4. Buqalarning qizlarining maxsuldorligini tengdoshlarini maxsuldorligi bilan solishtirib baxolash va tanlash

Mavzu bo'yicha foydalaniladigan adabiyotlar: 3,4,5,6,7,8, 10,11,13,15,22,23,25,29, 32,33

15 – mavzu. Qatorlar va oilalar bo'yicha urchitish asoslari.

R y e j a:

1. Qatorni o'ziga xos xususiyatlari
2. Qatorlarni yaratilish jarayonlari
3. Oila bilan naslchilik ishlarini yuritish
4. Oilalari bilan ishlash variantlari
5. Tarmoqlanib chiqqan qarindosh poda xo'jaliklari

Mavzu bo'yicha talabalarning bilim ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar mazmuni

Qatorlar va oilalar bo'yicha urchitish asoslari masalalariga oid ma'lumotlar tavsiya yetilgan adabiyotlar, ilmiy maqolalar, internet tizimi yordamida har bir talaba tomonidan referatlashtiriladi. Keltirilgan ma'lumotlar taxlil qilinadi, savollarga javob beriladi.

Uslubiy maslahatlar

Qator (buqa tizimi) zot ichidagi sifat jihatdan o'ziga xos hayvonlar guruhi bo'lib, ular bitta mashhur buqadan (asos soluvchi) tarqaladi va muhim xo'jalik uchun foydali belgilari bilan unga o'xshash bo'ladi. Maqsadga muvofiq seleksiya natijasida ular o'z otionalari ko'rsatkichlari darajasida shaklanadilar. Qatorga mansub bo'lgan hayvonlar asosiy ko'rsatkichlari bilan zotning yo'nalishiga va talablariga javob berishi kerak. N.A.Kravchenko ta'biri bilan aytilganda qatorlar uzluksiz zanjir sistemasi bo'lib, nasldor

mollar guruhida maqsadga muvofiq juftlash natijasida bo'g'indan – bo'g'inga o'tib boradi.

Qoramollar podasi tezkorlik bilan takomillashtirish uchun naslchilik ishlarini faqat qatorlar bilan yemas, oilalar bilan ham olib boriladi. Oilalar bilan to'g'ri tashkil qilingan naslchilik ishlari yuqori mahsuldorli mollarni ko'paytirish, irsiy sifatlari yaxshi bo'lgan buqalar yetishtirish imkonini beradi. Ko'pchilik qator asoschilari va yuqori sifatli mashhur buqalar faqat yaxshi buqalardan yemas, balki yaxshi sigirlardan ham kelib chiqqan. Odatda yangi qatorlarni yaratilishida mashhur oilalar asos bo'lgan.

Oila deb asos soluvchi mashhur sigirlardan tarqalgan urg'ochi avlodlarga aytiladi. Oila asoschisi mahsuldorlik sifatlari bo'yicha podani o'rtacha ko'rsatkichidan ancha yuqori to'radi.

Oila bilan ishlash onalari va qizlari o'rtasidagi mahsuldorlik bog'lanishga asoslanadi. Sigirni qizlarini yaxshi sifatlarini kuchaytirish ularni shu zotni ilg'or qatorlari bilan juftlash bilan amalga oshiriladi.

Masalan: Simmental zotli Meduza laqabli sigirni o'g'illaridan (Modniy, Moskat, Monument laqabli buqalar) naslchilik ishlarida to'g'ri foydalanish, sutining yog'liligi ko'p bo'lgan qatorlar yaratish imkonini bergan. Sichev zotini Treador qatori Tayne laqabli sigir oilasidan kelib chiqqan.

Irsiyat xususiyatlari turg'un bo'lgan oilalar, ayniqsa, naslchilik ishlarida katta ahamiyatga yega. Shu maqsadda Ushbu mavzuni talabalar tomonidan o'zlashtirishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil ishlash uchun savollar

1. Qatorni o'ziga xos xususiyatlari
1. Qatorlarni yaratilish jarayonlari
2. Oila bilan naslchilik ishlarini yuritish
3. Oilalari bilan ishlash variantlari
4. Tarmoqlanib chiqqan qarindosh poda xo'jaliklari

Mavzu bo'yicha foydalaniladigan adabiyotlar: 3,4,5,6,7,8, 10,11,13,15,22,23,25,29, 32,33

16 – mavzu. Sigir va urg'ochi tanalarni jinsiy dispanserizasiyadan o'tkazish

Reja:

1. Sigir va urg'ochi tanalarni jinsiy dispanserizasiyadan o'tkazish
2. Pushtsizlik va qisirlilikni oldini olish tadbirlari

Mavzu bo'yicha talabalarning nazariy bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar mazmuni

Sigir va urg'ochi tanalarni jinsiy dispanserizasiyadan o'tkazish masalalariga oid ma'lumotlar tavsiya yetilgan adabiyotlar, ilmiy maqolalar. Internet tizimi yordamida har bir talaba tomonidan referatlashtiriladi. Keltirilgan ma'lumotlar tahlil qilinadi, savollarga javob beriladi.

Uslubiy maslahatlar

Qoramolchilikni jadal rivojlantirishni asosiy omillaridan biri kengaytirilgan poda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish hisoblanadi. Buning uchun har bir xo'jalikda oziqa bazasini mustahkamlash, mollarni zotini yaxshilash, mahsuldorligini oshirish ularni bosh sonini oshirish bilan birga olib borilishi kerak.

Qoramollarni podasini jadal ishlab chiqarishni tashkil qilishda hayvonlarni serpushtligi muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun fermada ishlovchi barcha xodimlar mollarni qisir qolishligiga, pushsizligiga va bola tashlashiga qarshi kurash olib bormoqlari lozim. Buzoq ko'p olinsa sut ishlab chiqarish ham ko'payadi. Buning uchun birinchi navbatda sigir va urg'ochi tanalarni qisir qolish sabablarini chuqur o'rganmok zarur.

Qoramolchilik mahsulotlarini oshirishni asosiy zahirasi bo'lib, ularni bosh sonini oshirish, poda ishlab chiqarish jarayonini jadallashtirish, sigir va urg'ochi tanalarni qisir qolishini oldini olish hisoblanadi. O'zbekistonda ko'p xo'jaliklar mavjud sigir va g'unojinlardan 30-40%ga buzoq olmokdalar. Respublikamiz bo'yicha har 100 bosh sigir va g'unojinlardan 56 bosh buzoq olinmokda yoki har yili fermer xo'jaliklarida rejaga nisbatan 180-190 ming bosh buzoq kam olinmoqda. Har bosh qisir qolgan sigirdan 50% sut kam olinmoqda. Shuning bilan ayrim ilg'or xo'jaliklar har 100 bosh sigir va g'unojinlardan 84-86 bosh buzoq olmoqda.

Shuning uchun sut olinadigan qoramollar podasini tashkil qilishda qisir qolishlikni, pushtsizlik va bola tashlashni oldini olish uchun rejali ravishda kerakli tadbirlarni o'tkazish, sog'lom nasldor urg'ochi mollar podasini yaratish, mollarni serpushtligi va mahsuldorligini oshirish katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu mavzuda sut olinadigan sigirlar podasini tashkil qilish yo'llari, sut va qoramol go'shti yetishtirishni ko'paytirishni ayrim omillari yoritiladi.

Ta'kidlash mumkinki, qoramollarni doimiy ravishda dispanserizasiyadan o'tkazib turish, qoramolchilikni rivojlantirishga keng yo'l ochib beruvchi omillardan biri hisoblanadi.

Mustaqil ishlash uchun savollar

1. Sigir va urg'ochi tanalarni jinsiy dispanserizasiyadan o'tkazish
2. Pushtsizlik va qisirlilikni oldini olish tadbirlari

Mavzu bo'yicha foydalaniladigan adabiyotlar: 3,4,5,6,7,8, 13,15,16,25,26,31,33

17 - mavzu. Pushtsizlikdan keladigan zararni aniqlash

Reja:

1. Sigirlar va urg'ochi tanalarni pushsizligi va qisirligi, buqalar impotensiyasi
2. Pushtsizlikdan keladigan zararni aniqlash

Mavzu bo'yicha talabalarning nazariy bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar mazmuni

Sigirlar va urg'ochi tanalarni pushsizligi va qisirligi, buqalar impotensiyasi, sigir va urg'ochi tanalarning jinsiy dispanserizasiyasidan o'tkazish, pushtsizlikdan keladigan zararni aniqlashga oid ma'lumotlar tavsiya yetilgan adabiyotlar, ilmiy maqolalar, internet tizimi yordamida xar bir talaba tomonidan refaratlashtiriladi. Keltirilgan ma'lumotlar taxlil qilinadi, savollarga javob beriladi.

Uslubiy maslahatlar

Qoramolchilikni jadal rivojlantirishni asosiy omillaridan biri kengaytirilgan poda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish hisoblanadi. Buning uchun har bir xo'jalikda oziqa bazasini mustahkamlash mollarni zotini yaxshilash, mahsuldorligini oshirish, ularni bosh sonini oshirish bilan birga olib borilishi kerak.

Qoramollarni podasini jadal ishlab chiqarishni tahlil qilishda hayvonlarni serpushtligi muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun fermada ishlovchi hamma xodimlar mollarni qisir qolishligiga, pushsizligiga va bola tashlashiga qarshi kurash olib bormoqlari lozim. Buzoq ko'p olinsa sut ishlab chiqarish xam ko'payada. Buning uchun birinchi navbatda sigir va urg'ochi tanalarni qisir qolish sabablarini chuqur o'rganmoq zarur.

Qoramolchilik mahsulotlarini oshirishni asosiy zahirasi bo'lib ularni bosh sonini oshirish, naslchilik ishlarini yaxshilash, poda ishlab chiqarish jarayonini jadallashtirish sigir va urg'ochi tanalarni qisir qolishini oldini olish hisoblanadi. O'zbekistonda ko'p xo'jaliklar sigir va g'unajinlardan 30-50 % buzoq olmoqdalar. Respublikamiz bo'yicha xar 100 bosh sigir va g'unajinlardan 56 bosh buzoq olinmoqda yoki xar yili dehqon va

fermer xo'jaliklarida rejaga nisbatan 180-190 ming bosh buzoq kam olinmoqda. Har bosh qisir qolgan sigirdan 50 % kam sut olinmoqda. Shuning bilan ayrim ilg'or xo'jaliklar xar 100 bosh sigir va g'unajinlardan 84-86 bosh buzoq olmoqda.

Shuning uchun sut olinadigan qoramollar podasini tashkil qilishda qisir qolishni, pushtsizlikni va bola tashlashni oldini olish uchun rejali ravishda kerakli tadbirlarni o'tkazish, sog'lom nasldor urg'ochi mollar podasini yaratish, mollarni serpushtligi va mahsuldorligini oshirish katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu mavzuda sut olinadigan sigirlar podasini tashkil qilish yo'llari, sut va qoramol go'shti yetishtirishni ayrim omillari yoritiladi.

Mustaqil ishlash uchun savollar

2. Sigirlar va urg'ochi tanalarni pushsizligi va qisirligi, buqalar impotensiyasi
3. Pushtsizlikdan keladigan zararni aniqlash

Mavzu bo'yicha foydalaniladigan adabiyotlar: 3,4,5,6,7,8, 13,15,16,25,26,31,33

18 - mavzu. Qoramolchilikda biotexnologik uslublar va ularni qo'llash istiqbollari

Reja:

1. Uslubni yaratilish tarixi va rivojlanishi
2. Xomilani ko'chirib o'tkazish-biotexnologiyaning eng zamonaviy uslubi yekanligi
3. Sigirlarning xomilasini ko'chirib o'tkazish texnologiyasi

Mavzu bo'yicha talabalarning nazariy bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar mazmuni

Uslubni yaratilish tarixi va rivojlanishi, xomilani ko'chirib o'tkazish-biotexnologiyasi eng zamonaviy uslubi yekanligi, sigirlarning xomilasini ko'chirib o'tkazish texnologiyasiga oid ma'lumotlar tavsiya yetilgan adabiyotlar, ilmiy maqolalar, internet tizimi yordamida xar bir talaba tomonidan refaratlashtiriladi. Keltirilgan ma'lumotlar taxlil qilinadi, savollarga javob beriladi.

Uslubiy maslahatlar

Respublikamiz mustaqilligi chorvadorlar oldiga aholini sut va go'sht mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishdek, ulkan vazifani qo'ygan. Ushbu vazifani yechish uchun naslchilik ishini darajasini oshirish, mavjud qoramol zotlarini maxsuldorligini ko'paytirish yangi zot va zot guruhlarini yaratish talab qilinadi.

Bunda shunday yangi uslublarni yaratish kerakki, ular maqsadga muvofiq holda hayvonlarni bosh sonini ko'paytirish va maxsuldorligini oshirishni imkonini bersin.

Qoramolchilikda podani yangilash borasidagi izlanishlar shuni ko'rsatadiki, sigirlarni maxsuldorligini oshirish uchun ko'plab puchak qilishni tashkil qilish kerak (40-50%), ya'ni podada faqat yuqori mahsuldorli sigirlarni qoldirish lozim. Ayni paytda ushbuni amalga oshirish juda xam qiyin, chunki, yuqori maxsuldor (6-8 ming kg) sigirlarni podadagi salmog'i juda kam. Bu borada ushbu muammoni yechish uchun ishlab chiqarilayotgan yangi uslub xomilani ko'chirib o'tkazish yaxshi natijalar bermoqda.

Yembrionlar transplantasiyasi qoramollarni urchitish ishida juda katta imkoniyatlar ochadi. Ular quyidagilardan iborat;

a) naslchilik ishlarida va sut yo'nalishidagi qoramolchilikda;

-yuqori nasldor sifatiga yega bo'lgan qoramollarni va kam sonli noyob zotlarga taaluqli bo'lgan qoramollar sonini jadal ko'paytirish;

- generasion oraliqni qisqartirish;
- naslli buqalarni avlodlarini sifatiga ko'ra baxolashni tezlashtirish;
- naslli buqalarni yetishtirish uchun yuqori maxsuldorli sigirlarni tanlash;

b) go'sht yo'nalishidagi qoramolchilikda

- yegiz tug'ishlar sonini oshirish;
- go'sht yo'nalishidagi sigirlar xomilasini sut yo'nalishidagi sigirlarga ko'chirib o'tkazish;

v) savdo soxasida:

- tirik hayvonlar o'rniga muzlatilgan xomilalardan foydalanish;
- veterinariya borasidagi kamchiliklarni oldini olish (kasalliklarni tarqalishi)
- iqlimlashtirish jarayoniga yextiyojni qolmasligi;

g) boshqa imkoniyatlar:

- invitro urug'lantirish;
- xomilani jinsini aniqlash;
- bir tuxumdan rivojlangan yegizaklarni yetishtirish;
- ximerlarni yetishtirish;
- genlarni kuchirib o'tkazish;
- yo'qolib borayotgan zotlarni va genotiplarni konservasiya yo'li bilan saqlab, yembriobankni yaratish;
- klonlarni yaratish;

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar uslubni naqadar dolzarb va muhimligini ko'rsatadi. Bu sohada olimlarni izlanishlari yaxshi samaralar berdi. Buni chorvachilik yaxshi rivojlangan mamlakatlar misolida ko'rish mumkin. MDX mamlakatlarida Belorussiya Respublikasida qilingan ishlarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Mustaqil ishlash uchun savollar

1. Uslubni yaratilish tarixi va rivojlanishi
2. Xomilani ko'chirib o'tkazish-biotexnologiyaning eng zamonaviy uslub yekanligi
3. Sigirlarning xomilasini ko'chirib o'tkazish texnologiyasi

Mavzu bo'yicha foydalaniladigan adabiyotlar: 3,4,5,6,7,8, 10,11,13,15,17,22,23,25, 29,33

Qoramolchilik fanidan nazorat savollari

I - oraliq nazorat savollari

1. Qoramolchilikni xalq xo'jaliklarida tutgan o'rni
2. O'zbekistonda qoramolchilikni rivojlanish yo'nalishi
3. Dunyo mamlakatlarida qoramolchilikni rivojlanishi
4. Qoramollarni zoologik klassifikatsiyasi
5. Qoramollarni kraniologik (ryutimeyer) klassifikatsiyasi
6. Qanday belgilar asosida qoramollarni kelib chiqishi aniqlanadi?
7. Qoramollarni qo'lga o'rgatish va xonakilashtirish.
8. Qoramollar yevolyusiyasi
9. Ekstererni o'rganishning asosiy usullari
10. Sersut sigirlarni yelin va so'rg'ichlarini ko'rsatkichlari
11. Interer va uni o'rganish usullari
12. Laktasiyaning fazalarini ko'rsatkichlari.
13. Yelinni tuzilishini sut mahsuldorligi bilan bog'liqligi
14. Konstitutsiya klassifikatsiyalari
15. Qoramollar kondisiyasi
16. Sigir sutining odam organizmi uchun ahamiyati
17. Sutni hosil bo'lishi
18. Sutni yelindan ajralishi
19. Laktasiyaning turgunlik ko'effitsiyenti
20. Laktasiyani samaradorligini aniqlash
21. Laktasiya davomida sigirlar sutini pasayib borish harakteri
22. Laktasiya oylari bo'yicha sutni tarkibini o'zgarishi
23. Og'iz sutini immunobiologik xususiyatlari
24. Sut berish tezligi
25. Sigirlarni zotini va yoshini sutining sifatiga ta'siri
26. Servis davrini davomiyligini sut mahsuldorligiga ta'siri
27. Sutdan chikkan davrini davomiyligini sut mahsuldorligigiga ta'siri
28. Tug'ish mavsumini sut mahsuldorligiga ta'siri.
29. Oziqlantirish darajasini sutni tarkibiga ta'siri
30. Iydirish xaqida tushuncha
31. Sut mahsuldorligini hisobga olish
32. Sutni yog'ini va oqsilini aniqlash.
33. Go'sht mahsuldorlik ko'rsatkichlari
34. So'yim mahsulotlari
35. Qoramollar tanasida yog' to'planish harakteri
36. Go'shtni sifatini belgilovchi ko'rsatkichlar
37. Go'shtni oqsil - sifat ko'rsatkichi
38. Go'sht degustatsiyasi

39. Tana tuzilish tipini go'sht mahsuldorligiga ta'siri
40. Oziqlantirish tipini go'sht mahsuldorligiga ta'siri
41. Jinsni go'sht mahsuldorligiga va sifatiga ta'siri
42. Saqlash sharoitini go'sht mahsuldorligiga ta'siri
43. Qoramol nimtalarini navlarga bo'lib chopish
44. Qoramol zotlarini urchitish bo'yicha O'zbekiston mintaqalari
45. Golland zoti
46. Golshtin zoti
47. Qora-ola zoti
48. Qizil cho'l zoti
49. Bushuyev zoti
50. Shvis zebusimon mollarni tarqalishi, mahsuldorlik ko'rsatkichlari

I I - oraliq nazorat savolari

1. Qozoqi oq bosh zoti
2. Santa- Gertruda zoti
3. Naslchilik zavodlarini vazifalari
4. Yeleverlarning vazifalari
5. Tanlash
6. Buqalarni kelib chiqishiga qarab tanlash
7. Buqalarni qizlarining mahsuldorligiga qarab baholash
8. Go'sht yo'nalishidagi buqalarni mahsuldorligiga qarab tanlash
9. Individual-guruhlab juftlash
10. Guruhlab juftlash
11. Gomogen juftlash
12. Geterogen juftlash
13. Qoramollarga urug'dosh bo'lgan hayvonlar
14. Qoramollarning biologik xususiyatlari
15. Sersut zotlarni eksterer xususiyatlari
16. Qo'shmahsuldor yo'nalishdagi zotlarni eksterer xususiyatlari
17. Sergo'sht yo'nalishdagi zotlarni eksterer xususiyatlari
18. P.N.Kuleshov bo'yicha konstitutsiya klassifikatsiyasi
19. Interer ko'satkichlari
20. Sigirlar sutining kimyoviy tarkibi
21. Og'iz suti
22. Tug'ishdan tug'ishgacha bo'lgan darvlarning nomlanishi
23. Laktasiya egri chizig'i bo'yicha sigirlar tipi
24. Sutdorlik koyeffisienti va yelin indeksi
25. Urg'ochi tanalarni dastlabki urug'lantirish yoshini sut mahsuldorligiga ta'siri
26. Sog'ish usulini sonini va yelinni o'qalashni sutni miqdoriga va tarkibiga ta'siri
27. Go'shtning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari

28. Go'shtning morfologik tarkibi
29. Semizligi bo'yicha qoramollaning kategoriyalari
30. Zotni go'sht mahsuldorligiga ta'siri
31. Go'sht mahsuldorligini hisobga olish
32. O'zbekiston uchun rejali bo'lgan qoramol zotlari
33. Bushuyev zotining tarqalishi, genofondi va mahsuldorligi
34. Qozoqi oq bosh zotini tarqalishi, genofondi, mahsuldorligi
35. Aberdin-Anguss zotini tarqalishi, genofondi, mahsuldorligi
36. Naslchilik ishlarini yuritadigan korxonalar
37. Sigirlarni sut mahsuldorligi bo'yicha tanlash
38. Sut va qo'shmahsuldor buqalarni tanlash bosqichlari
39. Go'sht yo'nalishidagi buqalarni yerkak avlodlarining sifatiga qarab baholash
40. Juftlashni shakllari
41. Puchak va viranjirovka qilish
42. Qatorli va qatorlararo urchitish
43. Buqa tizimi haqida ma'lumot
44. Sigirlar oilasi haqida ma'lumot
45. Sut yo'nalishidagi qoramollar podasida sigirlarning salmog'i
46. Go'sht yo'nalishidagi qoramolchilikda podadagi sigirlar salmog'i
47. Urug'lantirish usullari
48. Sigirlarni otalantirish muddatlari
49. Yembrionni ko'chirib o'tkazish uchun donor va resepiyent sigirlarni tanlash
50. Sutdan chikkan davrini davomiyligini sut mahsuldorligi ta'siri

TEST NAZORATI SAVOLLARI

1. Qoramolchilikni xalq xo'jaliklarida tutgan o'rni

Qoramolchilikdan go'shtni 65 % teri xomashyosi, ikkinchi darajali oziqa mahsulotlari, texnik xomashyo (qon, suyak, ichak, ichki sekresiya bezlari, jun) yaylov o'ti hisobiga yetishtiriladi bir bosh sigir bir yilda 10 tonna go'ng ajratadi.

Qoramolchilikdan sutni 69 %, go'shtni 100 % teri xom ashesi, ikkinchi darajali oziqa mahsulotlari, texnik xomashyo (qon, suyak, ichak bezlar, jun) olinadi mahsulotni 60% yaylov o'ti hisobiga yetishtiriladi. Bir boshi 1 yilda 10 tonna go'ng ajratadi.

Qoramolchilikdan sutni 99 %, go'shtni 50 %, teri, ikkinchi darajali oziqa mahsulotlari texnik xomashyo olinadi transport hayvoni sifatida ishlatiladi mahsulotini 100 % yaylov o'ti hisobiga yetishtiriladi. Bir bosh sigir 1 yilda 5 tonna go'ng ajratadi.

Qoramolchilikdan sutni 30 % ,go'shtni 40 %, teri xomashyosi, ikkinchi darajali oziqa mahsulotlari (1 va 2 kategoriyali texnik xomashyo (qon, suyak, ichak, bezlar, jun) olinadi. Transport hayvoni sifatida ishlatiladi .Bir bosh sigir 1 yilda 20 tonna go'ng ajratadi.

2. O'zbekistonda qoramolchilikni rivojlanish yo'nalishi

1993 yil 15 martdagi Vazirlar mahkamasini qarori asosida xo'jaliklar xususiylashib nodavlat xo'jaliklari yuzaga keldi. Ularda yetishtirilgan mahsulotlar bozor narxida sotiladi.

1991 yil 15 yanvar. Vazirlar mahkamasini qarori asosida xo'jaliklari xususiylashib nodavlat xo'jaliklari yuzaga keldi. Ularda yetishtirilgan mahsulotlarni bir qismi davlat harid narxida, bir qismi yerkin narxda sotiladi

1995 yil 15 avgust Vazirlar Mahkamasini qaroridan so'ng xo'jaliklar xususiylashib, nodavlat xo'jaliklari yuzaga keldi. Ularda yetishtirgan mahsulotlarni bir qismi davlat harid narxida, bir qismi yerkin narxda sotiladi

1992 yil 15 sentyabr Vazirlar mahkamasini qaroridan so'ng xo'jaliklari xususiylashib, nodavlat xo'jaliklari yuzaga keldi. Ularda yetishtirilgan mahsulotlarni bir qismi davlatga harid narxida, bir qismi yerkin narxda sotiladi

4. Dunyo mamlakatlarida qoramolchilikni rivojlanishi

Sutdor qoramolchilik Yevropa mamlakatlarida, Shimoliy Amerikada, Yangi Zelandiyada va Avstraliyada, go'shtdor qoramolchilik AQSh, Kanada, Avstraliya, Angliya, Italiya va Fransiyada yaxshi rivojlangan. Afrika va Lotin Amerikasida ular asosan transport hayvoni sifatida urchitiladi.

Sutdor qoramolchilik Osiyo mamlakatlarida, Afrika, Yangi Gvineyada va Nepalda, go'shtdor qoramolchilik Isroilda, O'zbekistonda, Turkiyada, Fransiyada yaxshi rivojlangan. Afrika va Lotin Amerikasida ular asosan laboratoriya hayvoni sifatida urchitiladi.

Sutdor qoramolchilik Yevropa mamlakatlarida, Shimoliy Kamchatka, Yangi Gollandiyada va Chilida, go'shtdor qoramolchilik Islandiyada, Sibirda, Xindistonda, Somalida yaxshi rivojlangan. Yevropa va Shimoliy Amerikada ular ishchi hayvoni sifatida ishlatiladi.

Sut qoramolchiligi Osiyo mamlakatlarida, Arabiston davlatlarida yaxshi rivojlangan. Go'shtdor qoramolchilik esa Amerika mamlakatlarida rivojlangan.

4. Qoramollarni zoologik klassifikasiyasi.

Umurtqalilar bo'limiga, sut yemizuvchilar sinfiga, juft tuyoqlilar guruhiga, kovshovchilar urug'iga, kovak shoxlilar oilasiga, buqasimonlar turiga kiradi

Umurtkasizlar bo'limiga, sovuq qonlilar sinfiga, juft tuyoqlilar guruhiga, katta qorinlilar urug'iga, tik shoxlilar oilasiga, bizonlar turiga kiradi

Umurtkalilar bo'limiga, issik konlilar sinfiga yumshoq tovonlilar guruhiga, kovshovchillar urugiga, qirra shoxlilar oilasiga, buqasimonlar turiga kiradi.

Xordalilar tipiga, sut yemizadiganlar sinfiga, juft tuyoqlilar guruhiga, kavshamaydiganlar urug'iga, shoxsizlar oilasiga, sigirsimonlar turiga kiradi.

5. Qoramollarni kraniologik (Ryutimayer) klassifikasiyasi

Tor peshonali, keng peshonali, kalta boshli, to'qol, tik shoxli, turon-mo'g'ul tiplari farqlanadi.

Keng peshonlari, ingichka boshli, aylana shoxli, kalta bo'yinli, tuqol, to'g'ri shoxli, o'zbek-turk tiplari farqlanadi.

Tor peshonlari, uzun peshonali, uzun shoxli, katta boshli, to'qol, to'g'ri shoxli, fin-roman tiplari farqlanadi

Tor peshonali, keng peshonali, kalta shoxli, katta boshli, egri shoxli, qiya shoxli, hind-xitoy tiplari farqlanadi

6. Qanday belgilar asosida qoramollarni kelib chiqishi aniqlanadi?

Yovvoyi hayvonlarni suyaklarini hozirgi mollarni suyaklari bo'lgan solishtirib, Yeski san'at yodgorliklarida ifodalangan hayvonlarni rasmlarini o'rganib va har xil turdagi hayvonlarni o'zaro chatishtirish natijasiga qarab o'rganiladi.

Yovvoyi hayvonlarni suyaklarini hozirgi zamon mollarni suyaklari bilan solishtirib, san'at asarlarida hayvonlarni rasmini o'rganib, har xil oila hayvonlarni o'zaro chatishtirishga qarab o'rganiladi.

Fotosuratlar asosida yovvoyi hayvonlar suyaklarini hozirgi zamon sigirlar suyaklari bilan solishtirib, sopol tavoqlarda ifodalangan buqalarni rasmlarini o'rganib, har xil hayvonlarni o'zaro chatishtirishiga qarab.

Madaniy qoramollarni suyaklarini hozirgi mollar suyaklari bilan solishtirib, yeski rasmlarni tekshirish yo'li bilan, har xil oilaga mansub bo'lgan buqa va sigirlarni o'zaro chatishtirish natijasi asosida.

7. Qoramollarni qo'lga o'rgatish va xonakilashtirish.

Qoramollar avval qo'lga o'rgatilgan, so'ng xonakilashtirilgan. Bundan 8-9 ming yil ilgari Osiyoda so'ngra Yevropada qo'lga o'rgatilgan, 7-8 ming yil ilgari O'rta Osiyoda xonakilashtirilgan.

Qoramollar avval qo'lga o'rgatilgan, so'ng xonakilashtirilgan. Bundan 10-15 ming yil ilgari Rossiyada, so'ngra Germaniyada qo'lga o'rgatildi, 14-15 ming yil ilgari Afg'onistonda xonakilashtirilgan

Qoramollar avval qo'lga o'rgatilgan, so'ng xonakilashtirilgan. Yeramizning 8-9 asralarida qo'lga o'rgatilgan. 7-8 asrda Sibirda so'ng Janubiy Osiyog'a, Amerikaga tarqalgan

Qoramollar avval qo'lga o'rgatilgan, keyin xonakilashtirilgan. Tibetda, Yevropada qo'lga o'rgatilgan, 1717- 1818 yillari Qozog'istonda, Yeronda, Xindistonda xonakilashtirilgan.

8. Qoramollar yevolyusiyasi

Yevolyusiya prosessida yelini 10-15 marta, ichaklari 3-5 marta kattalashdi, tirik vazni, skleti, boshi, shoxlari kichiklashdi. Mahsuldorligi serpushtligi, tez yetishuvchanligi, laktasiya davri oshdi, jinsiy siklini mavsumiyligi, podani boshkarish instinkti yo'qolgan.

Yevolyusiya prosessida yelini 10-15 marta, ichaklari 3-5 marta kichiklashadi, tirik vazni, skeleti, boshi, shoxlari kichiklashadi. Mahsuldorligi, serpushtligi, tez yetishuvchanligi, laktasiya davri kamaygan. Jinsiy sikl mavsumiyligi, podani boshqarish instinkti yo'q.

Yevolyusiya prosessida yelini 10-15 marta ichaklari, 3-5 marta kattalashdi, tirik vazni, skeleti, boshi, shoxlari kichiklashdi. Mahsuldorligi, serpushtligi, tez yetishuvchanligi, laktasiya davri oshgan. Jinsiy siklini mavsumiyligini, podani boshkarish instinkti mustaxkamlangan.

Yevolyusiya jarayonida ichaklari qisqargan serpushtligi oshgan, podani boshkarish instinkti yomonlashgan.

9.Ekstererni o'rganishning asosiy usullari.

Ko'z bilan chamalab, tana qismlarini o'lchab, tana indekslarini chikarib, eksterer ko'rsatkichlarini o'zaro solishtirib (grafik) va rasmga tushirib o'rganiladi

Ko'z bilan chamalab, interer qismlarini o'lchab, tana chiziqlarini chizib, eksterer ko'rsatkichlarini o'zaro solishtirib (grafik) va rasmga tushirib o'rganiladi

Ko'z bilan chamalab, tana qismlarini o'lchab, qon bosimini, fiziologik holatini o'zaro solishtirib va tarozida tortib o'rganiladi.

Ko'z bilan chamalab, ichki organlarini ball bilan baholab, tana qismlarini o'lchab, qon bosimini, xavo haroratini va tusini solishtirib o'rganiladi.

10. Sersut sigirlarni yelin va so'rg'ichlarini ko'rsatkichlari

Katta, vannasimon, kosasimon va dumaloq, yelin bo'lmalari va so'rg'ichlari me'yorda rivojlangan, yupqa, mayin junlar bilan qoplangan, so'rg'ichlari silindrsimon yoki konussimon, uzunligi 6-8 sm, diametri 2 sm

Katta, vannasimon, yechki yelin va dumaloq, yelin bo'lmalari va so'rg'ichlari yaxshi rivojlanmagan, yupqa, mayin junlar bilan qoplangan, so'rg'ichlari silindrsimon yoki konussimon, uzunligi 6-7 sm, diametri 2 sm

Katta, vannasimon, kosasimon va dumaloq, yelin bo'lmalari va so'rg'ichlari me'yorda rivojlangan, yupqa, qalin junlar bilan qoplangan. so'rg'ichlari kalamsimon, yoki noksimon, uzunligi 6-8 sm, diametri 2 sm

Yelinlari echki yelin yoki doirasimon, uzun jun bilan qoplangan, so'rg'ichlari doirasimon 3-4 sm.

11 . Interer va uni o'rganish usullari

Fiziologik, anatomo-gistologik va bioximik xususiyatlarini, konstitusiyasi va mahsuldorligi bilan bog'langan xoldagi rivojlanishiga aytiladi va Klyuver Shtraux usulida o'rganiladi..

Fiziologik, anatomo-gistologik va bioximik xususiyatlarini konstitusiyasi va mahsuldorligi bilan bog'langan xoldagi ko'rsatkichlarga interer deyiladi. U fiziologik, gistologik, rentgenoskopik, sitobioximik, biopsiya usullari bilan o'rganiladi.

Tirik vazni, sutini tarkibi, kunlik o'sishi bioximik xususiyatlariga aytiladi. U fiziologik, gistologik, rentgenoskopik, sitobioximik, biopsiya usullari bilan o'rganiladi

Qonini tarkibini, modda almashinuvini va gomeostazni konstitusiyasi va mahsuldorligi bilan bog'langan ko'rsatkichlariga aytiladi. U fiziologik, gistologik, rentgenoskopik, biopsiya usullari bilan o'rganiladi

12.Laktasiya fazalarini ko'rsatkichlari

Laktasiyani birinchi yarmida, sutni 60-70 %, 2 chi 5 oyida 30-40 % ni sog'ib olinadi, 2 chi yarmida yelin massasi 20-40 % ga, bezli to'qimani maydoni 10 % ga kamayadi, biriktiruvchi to'qimani maydoni 50 % ga, qalinligi 10 % ga oshadi.

Laktasiyani birinchi 5 oyida sutni 60-70 %, 2 chi 5 oyida 100 % olinadi. 2 chi yarmida yelin vazni 20-40 % ga, bezli to'qimani maydoni 10 % ga kichrayadi, biriktiruvchi to'qimani maydoni 50 % ga, qalinligi 10 % ga ko'payadi

Laktasiyani birinchi 5 oyida sutni 60-70 %, 2 chi 5 oyida 30-40 % olinadi, 2 chi yarmida yelin vazni 20-40 % ga, bezli to'qimani maydoni 10 % ga ko'payadi, biriktiruvchi to'qimani maydoni 50 % ga, qalinligi 10 % ga ko'payadi.

Laktasiyasi 3 fazada bo'lib, birinchi fazada sutini 30 %, qolgan fazalarda 70% foizini beradi.

13. Yelinni tuzilishini sut mahsuldorligi bilan bog'liqligi

Laktasiya davrida bezli to'qima 70-80 %, biriktiruvchi to'qima 20-30 % bo'lsa ko'p sut olinadi. Bezli to'qima 80 % dan ko'p bo'lsa sigir sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, 1 kg yelin vazniga 60-80 kg tirik vazn tugri kelsa sigir sersut bo'ladi.

Laktasiya davrida bezli to'qima 70-80 %, biriktiruvchi to'qima 40-50 % bo'lsa ko'p sut sog'ib olinadi. Bezli to'qima 80 % dan ko'p bo'lsa, sigir sog'ligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. 1 kg yelin vazniga 60-80 kg tirik vazn to'g'ri kelsa sigir sersut bo'ladi.

Laktasiya davrida bezli to'qima 70-80 %, biriktiruvchi to'qima 1-2 % bo'lsa ko'p sut olinadi. Bezli to'qima 80 % dan ko'p bo'lsa sigir sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. 1 kg yelin vazniga 60-80 kg tirik vazn to'g'ri kelsa sigir sersut bo'ladi

Laktasiya davrida bezli to'qima 40 – 50 % , biriktiruvchi to'qima 15-20 % bo'lsa sigir ko'p sut beradi. 1 kg yelin og'irligiga 50 kg sigir vazni to'g'ri kelishi kerak.

14. Konstitutsiya klassifikatsiyalari

Qoramollar konstitutsiyasi F. Veydenreyx, U.Dyurst, K.Mal'sburg, Ye.A.Bogdanov va P.N.Kuleshovlar tomonidan klassifikatsiyalangan. Eng qulayi P.N. Kuleshov klassifikatsiyasi hisoblanadi.

Qoramollar konstitutsiyasini V.Liskun, G.Mendel, A.I.Chichikov, V.Solnsev va P.N. Kuleshovlar klassifikatsiyalagan. Eng qulayi P.N. Kuleshov klassifikatsiyasi hisoblanadi

Qoramollar konstitutsiyasini N.I.Strekozov, Aristotel, Gerodot, Gippokrat va P.N.Qo'leshov klassifikatsiyalaganlar. Eng qo'layi L.K.Yernst klassifikatsiyasi hisoblanadi

Qoramollar konstitutsiyasini A.Prudov, Yu.Klinskiy, N.G.Dmitriyev, Ye.A.Bogdanov va Pridoroginlar klassifikatsiyalagan. Eng qo'layi Zettgyog'ast klassifikatsiyasi hisoblanadi

15. Qoramollar kondisiyasi

Qoramollarni semizligi va ishlatishga bog'liq bo'lgan fiziologik holatiga kondisiya deyiladi. Zavod, ko'rgazma, ishchi, bo'rdoqi kondisiyalar farqlanadi

Qoramollarni semizlik va ishlatish bo'lgan bog'liq bo'lgan mahsuldorlik holatiga kondisiya deyiladi. Fabrika, ko'rgazma, yelever kondisiyalar farqlanadi

Qoramollarni semizlik va ishlatish bilan bog'liq eksterer holatiga kondisiya deyiladi. Zavod, ko'rgazma, ishchi, bo'rdoqi va patologik kondisiyalar farqlanadi

Qoramollarni semizlik va ishlatish bilan bog'liq xolda o'zgaradigan fiziologik holatiga kondisiya deyiladi. Bo'rdoqi va patologik kondisiyalar farqlanadi.

15. Sigir sutining odam organizmi uchun ahamiyati.

Organizmدا sut yog'i 95 %, sut qandi 100 %, hazm bo'ladi. 1 l sut organizmni yenergiyaga bo'lgan talabini 100 % ga, kalsiyga bo'lgan talabini 150 % ga, fosforga bo'lgan talabini 112 % qondiradi

Organizmدا sut yog'i 15 %, sut qandi 100 % hazm bo'ladi. 1 l sut organizmni yenergiyaga bo'lgan talabini 100 %, kal'siyga bo'lgan talabini 15 %, fosforga bo'lgan talabini 112 % qondiradi

Organizmدا sut yog'i 115 %, sut qandi 10 % hazm bo'ladi. 1 l sut organizmni yenergiyaga bo'lgan talabini 100 %, kal'siyga bo'lgan talabini 110 % fosforga bo'lgan talabini 112 % qondiradi.

Organizmدا sut yog'i 95 %, sut qandi 100 % hazm bo'ladi. 1 l sut organizmni yenergiyaga bo'lgan talabini 100 %, kal'siyga bo'lgan talabini 130 %, fosforga bo'lgan talabini 100 % qondiradi.

17. Sutni hosil bo'lishi

Sut - sut kanallarida xosil bo'ladi. Oqsillar, yog'lar, sut qandi sut bezlari tomonidan sintezlanadi, vitaminlar, gormonlar, globulinlar, mineral tuzlar sintezlanmasdan qondan sutga o'tadi.

Sut - sut bezlarida xosil bo'ladi. Oqsillar, og'ir metallar sut bezlari tomonidan sintezlanadi, vitaminlar, gormonlar, fermentlar, mineral tuzlar sintezlanmaydi

Sut - sut kanallarida xosil bo'ladi, tuzlar, gormonlar, fermentlar sut bezi tomonidan sintezlanadi, oqsillar, yog'lar, sut qandi kondan sutga o'tadi.

Sut - sut bezlarida xosil bo'ladi. Oqsillar, yog'lar, sut qandi qondan sutga o'tadi, vitaminlar, fermentlar, gormonlar sut bezlari tomonidan sintezlanadi.

18. Sutni yelindan ajralishi

Sutni ajralishi nervreflektor va neyrogumoral fazalardan iborat. Gipofizdan ajralgan oksitosin so'rg'ichga kelib "kran" ni ochadi, sut ajraladi

So'rg'ich nervlardan oshqozon osti beziga signal keladi so'ng. Buyrakdan ajralgan glyukoza so'rg'ichga kelib kranni ochadi, sut ajraladi.

So'rg'ichga nervlaridan gipotalamusga signal kelgandan so'ng, relizing gormon ajratilib gipofizga yuboriladi. Gipofizdan ajralgan oksitosin so'rg'ichga kelib kranni ochadi

Sutni - ajralishi nervo- gumoral fazadan iborat, so'rg'ich nervlaridan gipotalamusga signal kelgandan so'ng, relizing gormon sut ajralishini tezlatiradi.

19. Laktasiyaning turgunlik koyeffisiyenti

$LTK = \frac{\text{laktasiyani 2-nchi 100 kunidagi suti, kg} - \text{laktasiyani 1-nchi 100 kunidagi suti, kg}}{100}$

$LTK = \frac{\text{laktasiyani 1-100 kunidagi suti, kg} - \text{laktasiyani 2-100 kunidagi suti, kg}}{100}$

$LTK = \frac{\text{laktasiyani 5-100 kunidagi suti, kg} - \text{laktasiyani 6-100 kunidagi suti, kg}}{100}$

$LTK = \frac{\text{laktasiyani 10 kundagi suti, kg} - \text{laktasiyani 20 kunidagi suti, kg}}{100}$

20. Laktasiyani samaradorligini aniqlash

V.B. Veselovskiy bo'yicha $LE = \frac{\text{Laktasiyada bergan suti, kg} \times \text{kunlik eng ko'p bergan suti, kg}}{305 \times 100}$

V.B. Veselovskiy bo'yicha $LE = \frac{Z05}{\text{kuniga eng ko'p bergan suti laktasiyada bergan sut}} \times 100$

V.B. Veselovskiy bo'yicha $LE = \frac{\text{laktasiyada bergan suti, kg}}{\text{kunlik eng ko'p bergan suti} + Z05} \times 100$

V.B. Veselovskiy bo'yicha $LE = \frac{\text{Laktasiyada bergan suti, kg}}{\text{Kunlik kunlik eng ko'p bergan suti, kg}} \times 305 \times 100$

21. Laktasiya davomida sigirlar sutini pasayib borish harakteri

Laktasiyada beradigan sut miqdori 25 % kunlik eng ko'p bergan sutiga, 75 % laktasiya egri chizig'ini pasayib borishi harakteriga bog'liq bo'ladi.

Sigirlarni laktasiyada beradigan sut miq. 5 % kunlik eng ko'p bergan sutiga, 7 % laktasiya egri chizig'ini pasayib borishi harakteriga bog'liq bo'ladi.

Sigirlarni laktasiyada beradigan sut miqdorini 45% kunlik eng kam bergan sutiga, 7 % laktasiya egri chizig'ini kutarilib borish harakteriga bog'liq bo'ladi.

Sigirlarni laktasiyada beradigan sut miqdorini 50 % kunlik eng ko'p bergan sutiga, 50 % laktasiya egri chizig'ini pasayib borish harakteriga bog'liq.

22. Laktasiya oylari bo'yicha sutni tarkibini o'zgarishi

Laktasiyani 5 oyiga qadar sutni yog'i va oqsili ko'payadi, oxirida 20-45 % kamayadi, sariyog' tayyorlash laktasiyasini 10, pishloq tayyorlash uchun 20 kun boshlab sog'ilgan sutni ishlatish mumkin.

Laktasiyani 3 oyiga qadar sutni yog'i va oqsili kamayadi, oxirida 20-45 % ko'payadi. sariyog' tayyorlash uchun 7, pishloq tayyorlash uchun 1- kun boshlab sog'ilgan sutlarni ishlatish mumkin.

Laktasiyani 4 oyiga qadar sutni yog'i va oqsili kamayadi, oxirida 10-12 % ko'payadi, sariyog' tayyorlash uchun laktasiyani 7, pishloq tayyorlash uchun 10 kundan boshlab sog'ilgan sutlardan foydalanish mumkin.

Laktasiyani 1 oyiga qadar sutni yog'i va oqsili kamayadi, oxirida 1-2 % ko'payadi, sariyog' tayyorlash uchun laktasiyani 1, pishloq tayyorlash uchun 11 kun boshlab sog'ilgan sutlardan foydalanish mumkin.

23. Og'iz sutini immunobiologik xususiyatlari

Oqsil, mineral moddalar va fermentlarga boy. Immun tanalar mavjud. Kislotalik darajasi 50-55°T, mikroblarni o'ldiradi, oshqozonni bo'shashtirib, mekonini tez ajratadi.

Oqsil, mineral moddalar va fermentlarga boy. Immun tanalari bor. Kislotaligi 1-2°T, mikroblarni o'ldiradi, oshqozonni qotiradi.

Oqsil, mineral moddalar va fermentlarga boy. Immun tanalari bor. Kislotaligi 50-55°T. Mikroblarni uldirmaydi, oshqozonni bo'shashtirib mekonini tez ajratadi.

Oqsil, mineral moddalar va fermentlarga boy. Immun tanalari bor. Kislotaligi 41-15°T. Mikroblarni o'ldiradi, oshqozonni bo'shashtirib mekonini tez ajratadi.

24.Sut berish tezligi

Sigirni 1 minutda ajratgan sut miqdoriga aytiladi. 1 min 2,5 kg bersa yaxshi, 1,5-1,8 kg bersa o'rta, 1 kg dan kam bersa yomon.

Sigirni 1 kunda bergan sut miqdoriga aytiladi. 1 kunda 2,5 kg bersa yaxshi, 1,5-1,8 kg bersa urta, 1 kg dan bersa yomon

Sigirni 1 min bergan sut miqdoriga aytiladi. 1 min 0,5 kg bersa yomon, 0,5-0,8 kg bersa o'rta, 0,1 kg kam bersa yaxshi.

Sigirni 1 soatda bergan sut miqdoriga aytiladi. 1 soatda 2,5 kg bersa yaxshi, 1,5-1,8 kg bersa urta 1 kg dan kam bersa yomon.

25. Sigirlarni zotini va yoshini sutining sifatiga ta'siri.

Yoshini oshib borishi bilan yog'i va oqsili kam o'zgaradi. Yuqori mahsuldor va madaniy zotli sigirlarda sutni yog'i va oqsili nisbatan tez o'zgaruvchan bo'ladi

Yoshini oshib borishi bilan yog'i va oqsili ko'p o'zgaradi. O'rta mahsuldorli va madaniy zotli sigirlarda sutni qandi nisbatan kam o'zgaruvchan bo'ladi.

Qari sigirlarda yog'i va oqsili kam bo'ladi. O'rta mahsuldor va yuqori zotli sigirlarda sutni yog'i va qandi nisbatan tez o'zgaruvchan bo'ladi.

Yoshini kamayishi bilan yog'i va oqsili kam o'zgaradi. Yuqori mahsuldorli va madaniy zot sigirlarda sutini yog'i va moy kislotasi nisbatan sekin o'zgaradi.

26. Servis davrini davomiyligini sut mahsuldor ligiga ta'siri

Bug'ozligini 5 oyidan boshlab suti kamayadi. Qisir sigirlarga nisbatan bug'oz sigirlarda sut 15-20 % kamayadi. Servis davr 50-85 kundan ortiq bo'lmasligi kerak.

Bug'ozligini 10 oyidan boshlab suti kamayadi. Qisir sigirlarga nisbatan bug'oz sigirlarda sut 5-10 % kamayadi. Servis davr 90-100 kundan ko'p bo'lmasligi kerak.

Bug'ozligini 1 oyidan boshlab suti kamayadi. Qisir sigirlarga nisbatan bug'oz sigirlarda sut 1-2 % kamayadi. Servis davri 50-60 kundan ortiq bo'lmasligi kerak.

Bug'ozligini 9 oyidan boshlab suti ko'payadi. Bug'oz sigirlarga nisbatan kisir sigirlarda sut 15-20 % kamayadi. Servis davri 15-30 kundan ortmasligi kerak.

27. Sutdan chikkan davrini davomiyligini sut mahsuldorligigi ta'siri.

Tug'ishga 3,5-4 oy qolganda sut bezlarini involyusiyasi kuchayadi. Tuqqanini birinchi oyida zaxira moddalar hisobiga sut beradi. Shuning uchun dam olish davri 45-60 kun bo'lishi kerak.

Tug'ishga 1-2 oy qolganda sut bezlarini involyusiyasi kuchayadi. Tuqqanini 4 oyida zaxira moddalar hisobiga sut beradi. Shuning uchun dam olish davri 10-20 kun bo'lishi kerak

Tug'ishga 3,5-4 oy qolganda sut bezlarini involyusiyasi tezlashadi. Tuqqanini 2 oyida zaxira moddalar hisobiga sut beradi. Shuning uchun dam olish davri 20 kun bo'lishi kerak.

Tug'ishga 3-4 oy kolganda sut bezlarini involyusiyasi pasayadi. Tug'ishgacha 2 oy qolganda organizmdagi moddalar sarflanmaydi. Shuning uchun dam olish davri 150 kun bulishi kerak.

28. Tug'ish mavsumini sut mahsuldorligiga ta'siri.

O'zbekiston sharoitida ko'zda va bahorda tuqqan sigirlarni suti yozda va qishda tuqqan sigirlarnikidan 10-20 % ko'p bo'ladi. Ob-havo bilan bog'liq.

O'zbekiston sharoitida kuzda va bahorda tuqqan sigirlar suti yozda va qishda tuqqan sigirlarnikidan 80-90 % ko'p bo'ladi. Bu kuzda yomg'ir yog'ib, xaslarni yumshashi va ob-havoni normallashtirish bilan bog'liq.

O'zbekiston sharoitida kuzda va bahorda tuqqan sigirlarni suti yozda va qishda tuqqan sigirlarnikidan 40-50 % ko'p bo'ladi.

O'zbekiston sharoitida kuzda va bahorda tuqqan sigirlarni suti yozda va qishda tuqqan sigirlarngikidan 100 % ko'p bo'ladi. Zotiga bog'liq bo'ladi.

29. Oziqlantirish sharoitini sut tarkibiga ta'siri

Rasionda pichanni kamligi, botqoqlikdan o'rilgan o'tlar, xashaki karam, achchiq jom sutni yog'ini kamaytiradi, pivo achitqilari, makro va mikroyelementlar, vitamin Ye, miqdorini oshiradi.

Rasionda pichanni kamligi, botqoqdan o'rilgan beda pichani, xashaki tarvuz, achchik sut yog'ni miqdorini kamaytiradi, aroq zavodi achitqilari, mikroyelementlar, vitamin D va sut miqdorini kamaytiradi.

Rasionda pichanni ko'pligi, tog'dan o'rilgan o'tlar, xashaki lavlagi, shirin suv sut yog'ini ko'paytiradi, non xamir turushi, mikroelementlar, vitamin R miqdorini oshiradi

Rasionda pichanni kamligi, botqoqdan o'rilgan o'tlar, xashaki karam, achchiq jom sutni yog'ini oshiradi, pivo achitqilari, tuzlar, vitamin V6 ni miqdorini keskin ravishda oshiradi.

30. Iydirish xaqida tushuncha.

Uni yelementlari bo'lib, sut sog'imini rejalashtirish, tug'ishga tayyorlash, uqalash, sog'ish texnikasiga rioya qilish, "qarz" berib oziqlantirish, mosion berish, saqlash sharoitini yaratish kabilar hisoblanadi

Uni yelementlari bo'lib, sog'imilar soni, urug'lantirishga tayyorlash, o'lchash, sog'ish usuliga rioya qilish, mosion berish, saklash sharoitini yaxshilash kabilar hisoblanadi.

Uni yelementlari bo'lib, sut sog'imini tekshirish, tug'ishga tayyorlash, uqalash, sog'ish texnikasiga amal qilish, qarz bermay oziqlantirish kabilar hisoblanadi.

Uni yelementlari bo'lib, oziqlantirish, sut berish, sog'ish tezligini tekshirish, qarz berib oziqlantirish, mosion berish, saklash sharoitini yaratish kabilar hisoblanadi.

31. Sut mahsuldorligini hisobga olish.

Sutni har bir sog'imdan so'ng o'lchab va har 10 kunda nazorat o'tkazib miqdori aniqlanadi. Dastlabki tuqqan sigirlarni laktasiyasini 90 kunidagi sutini miqdori 2,6 ga ko'paytirilib 305 kunlikdagi sutining miqdori aniqlanadi.

Sutni har bir sog'imdan so'ng har 20 kunda nazorat sog'imi o'tkazilib, miqdori aniqlanadi. Dastlabki tuqqan sigirlarni laktasiyasini 90 kunidagi suti 2,6 ga ko'paytirilib 305 kunlik suti aniqlanadi

Sutini har 1 sog'imdan sut o'lchab va har 30 kunda nazorat sog'imi utkazilib miqdori aniqlanadi. Dastlabki tuqqan sigirlarni laktasiyasini 90 kunidan suti 3,8 ga ko'paytirilib 305 kunlik suti aniqlanadi

Sutni har 1 sog'imdan so'ng o'lchab va har 30 kunda nazorat sog'imi utkazilib miqdori aniqlanadi. Dastlabki tuqqan sigirlarni laktasiyasini 90 kunidagi suti 3,0 gga ko'paytirilib 305 kunlik suti aniqlanadi.

32. Sutni yog'ini va oqsilini aniqlash.

1 marta yoki har 2 oyda 1 marta aniqlanadi. Aniqlangan yog' % shu oydagi sut miqdoriga ko'paytirilib 1% sutga aylantiriladi. 1% sut miqdorini shu davrda sog'ilgan xaqiqiy sut miqdoriga bulinsa, o'rtacha yog' % chiqadi.

Oyda 1 marta yoki 2 marta aniqlanadi. Aniqlangan yog' % shu oydagi sut miqdoriga bulinib 1% li sutga aylantiriladi. 1% li sut miqdorini shu davrda aniqlangan sut miqdoriga bulinsa, o'rtacha yog' % chiqadi

Oyda 1 marta yoki har 2 oyda 1 marta aniqlanadi. Aniqlangan yog' % shu oydagi sut miqdoriga ko'paytirilib, 10 % yog'li sutga aylantiriladi. 1 % sut miqdorini shu davrda olingan sut miqdoriga qo'shsak o'rtacha yog' % chiqadi.

Oyda 1 marta yoki har 2 oyda 1 marta aniqlanadi. Aniqlangan yog' % shu oydagi sut miqdoriga ko'paytirilib 1% sutga aylantiriladi. 1% sut miqdorini shu davrda olingan sut miqdoriga ko'paytirsak o'rtacha yog' % chiqadi.

33. Go'sht mahsuldorlik ko'rsatkichlari.

Tirik vazni, nimtalar vazni, ichki yog'i, I va II kategoriyali so'yim mahsulotlari, morfologik tarkibi, kimyoviy tarkibi, navlarga bo'linishi, so'yim og'irligi, so'yim chiqimi.

Tuyoqlarini og'irligi, nimalarning morfologik tarkibi, ichki yog'ini qaynash temperaturasi, III kategoriya so'yim mahsulotlari, kimyoviy tarkibi, navlarga bo'linishi, so'yim og'irligi.

Tirik vazni, nimalarni bonitirovka klassi, ichki yog'ini muzlash temperaturasi, II va III kategoriya so'yim mahsulotlari, morfologiyasi, zoologik klassifikatsiyasi, navlarga bo'linishi.

Tirik vazni, nimtalar vazni, ichki yog'i, I va II kategoriya ichki mahsulotlar, junini og'irligi, uni morfologik tarkibi, junini navlarga bulinishi, so'yim og'irligi, so'yim chiqimi.

34. So'yim mahsulotlari.

I kategoriya, jigar, buyrak, til, yurak, yelin, miya, dumg'aza, II kategoriya - katta qorin, shirdon taloq, texnik mahsulotlarga - teri, shoxlar, tuyoqlar, qon, suyaklar, ichaklar, junlar, ichki sekresiya bezlari kiradi.

I kategoriya - teri, shoxlar, tuyoqlar, qon, suyaklar, ichaklar, junlar, ichki sekresiya bezlari: II kategoriya - katta qorin, shirdon, taloq; texnik mahsulotlarga - jigar, buyrak, til, yurak, yelin, miya, dumg'aza kiradi.

I kategoriya - jigar, buyrak, qorin, shirdon, talok; II kategoriya - til, yurak, yelin, miya, dumg'aza; texnik mahsulotlarga - teri, shox, kon, suyak, junlar kiradi.

I kategoriya - jigar, buyrak, til, yurak, teri, miya, dum, II - katta qorin, ichaklar, buyraklar, o't pufagi; texnik mahsulotlarga - teri, shoxlar, tuyoqlar, qon, suyaklar, ichki sekresiya bezlari kiradi.

35. Qoramollar tanasida yog' to'planish harakteri.

Yog' dastlab ichki organlarda, so'ng muskul ichida, muskullar oralig'ida va teri ostida to'planadi. Teri ostidagi yog'da yod soni ko'p, yerish temperaturasi past bo'ladi. Muskul ichidagi va oralig'idagi yog', go'shtni marmar qavatli bo'lishini ta'minlaydi

Yog' dastlab muskul ichida va orasida to'planadi. Teri ostidagi yog'da yod soni ko'p, muskul ichidagi va oralig'idagi yog' go'shtni marmar qavatli bo'lishini ta'minlaydi.

Yog' dastlab teri ostida, so'ng muskul ichida, muskul oralig'ida va teri oralig'ida to'planadi. Teri ostidagi yog'da yod soni ko'p. Muskul ichidagi va oralig'idagi yog' go'shtni marmar qavatli bo'lishini ta'minlaydi.

Yog' dastlab muskullar orasida to'planadi so'ngra ichki organlarda boshlaydi. Muskul to'qimasi orasida yog'ni bo'lishi uni qattiqlashtiradi.

36. Go'shtni sifatini belgilovchi ko'rsatkichlar.

U 3 guruhga bo'linadi: morfologik, fiziko-ximik, organoleptik. 1 kg suyakga 4-5 kg laxm, oqsil va yog' nisbati 1:1, 1:0,7. Oqsil sifat ko'rsatkichi (OSK) 4-5 ga teng bo'lsa yaxshi hisoblanadi.

U 2 guruhga bo'linadi: morfologik, fiziologik. 1 kg suyakga 4-5 kg yog', oqsil va yog' nisbati 1:1;1:0,7. Oqsil sifat ko'rsatkichi (OSK) 4-5 ga teng bo'lsa yaxshidir.

U 3 guruhga bo'linadi: morfologik, fiziologik, organoleptik. 1 kg suyakga 8-9 kg laxm, oqsil va yog' nisbati 1:1, 1:0,7. Oqsil sifat ko'rsatkichi 8 – 9 ga teng bo'lsa yaxshi hisoblanadi.

U 3 guruhga bo'linadi: morfologik, fiziologik, organoleptik. 1 kg suyakga 10 kg laxm, Oqsil va yog' nisbati 1:4, 1:5. Oqsil sifat ko'rsatkichi (OSK) 4-5 teng bo'lsa yaxshi hisoblanadi.

37. Go'shtni oqsil - sifat ko'rsatkichi.

Triptofan va oksiprolin aminokislotalarining nisbatiga go'shtni oqsil-sifat ko'rsatkichi deyiladi. Bu nisbat 4,8-5,0 va yuqori bo'lsa yaxshi hisoblanadi.

Triptofan va metionin aminokislotalarini nisbatiga go'shtni oqsil-sifat ko'rsatkichi deyiladi. Bu nisbat 1,6-2,8 bo'lsa, muskul to'qimasini qimmatli yekanini bildiradi.

Triptofan va arginin aminokislotalarini nisbatiga go'shtni oqsil-sifat ko'rsatkichi deyiladi. Bu nisbat 0,4-0,8 bo'lsa, muskul to'qimasini qimmatli yekanini bildiradi.

Triptofan va sistin aminokislotalarini nisbatiga go'shtni oqsil-sifat ko'rsatkichi deyiladi. Bu nisbat 14-15 bo'lsa, muskul to'qimasini qimmatli yekanini ko'rsatadi.

38.Go'sht degustasiyasi

Degustasiya - go'shtni (sho'rvasiga, qovurmasiga, qaynatilganiga) yeb ko'rib, baho berishdir. Baholanadigan go'sht va uni sho'rvasi tuzsiz bo'lishi kerak.

Degustasiya - go'shtni(qiymasi, kabob) yeb ko'rib, baho berishiga aytiladi. Baholanadigan go'sht va shurvasi tuzli bo'lishi kerak.

Degustasiya deb - go'shtni (sho'rvasi, xasipi) yeb kurib baho berishga deyiladi. Baholanadigan go'sht va uni sho'rvasi tuzsiz bo'lishi kerak.

Degustasiya deb- go'shtni (sho'rvasi, kovurmasi, qaynatmasiga) yeb ko'rib, baho berishga aytiladi. Baholanadigan go'sht va uni sho'rvasida tuz juda ko'p bo'lishi kerak.

39. Tana tuzilish tipini go'sht mahsuldorligiga ta'siri

Angliyada yaratilgan sergo'sht zot 15-18 oygacha, Fransiya va Italiya zotlarini 2,5-3 yoshgacha bo'rdoqilash (700-800 kg) mumkin, go'shti kam yog' bo'ladi. Sut va qo'shmahsuldor mollar asosan yog'ni ichki organlarida to'playdi.

Angliyada yaratilgan zotlar 20-38 oygacha. Fransiya, Italiyani zotlari 1-1,5 yoshgacha jadal bo'rdoqilash (700-800kg) mumkin, go'shti kam yog' bo'ladi. Sut va qo'shmahsuldor mollar yog'ni ichki organlariga to'playdi.

Angliyada yaratilgan sergo'sht zotlar 15-18 oygacha. Fransiya, Italiya zotlarini 12-13 oygacha jadal bo'rdoqilash (400-420) mumkin,go'sht kam yog' bo'ladi.Sut va ishchi mollar yog'ni teri ostiga tuplaydi

O'zbekistonda yaratilgan sergo'sht zotlar 15-18 oygacha. Qozog'istonni go'sht yo'nalishidagi zotlarini go'shti 3 yoshgacha seryog' bo'ladi. Sut va qo'shmahsuldor mollar yog'ni ichki organlariga to'playdi

40. Oziqlantirish tipini go'sht mahsuldorligiga ta'siri.

Rasionda 70-80 % hajmli oziqalar bo'lsa, yosh mollar uni tarkibidagi oqsil moddalarini yaxshi sintez qiladi, oshqozon - ichak sistemasi yaxshi rivojlanadi. Yem oziqalar ko'p bo'lsa tez yetishadi, lekin o'smay qoladi.

Rasionda 7 – 8 % xajmli oziqalar bo'lsa, yosh mollar uni tarkibidagi oqsil moddalarni yaxshi sintez qiladi, oshqozon - ichak sistemasi kam o'sadi. Yem oziqalar ko'p bo'lsa tez yetishadi, lekin tez rivojlanadi.

Rasionda 17 - 18 % xajmli oziqalar bo'lsa yosh mollar uni tarkibidagi oqsil moddalarni yaxshi sintez qiladi. Oshqozon - ichak sistemasi yomon o'sadi. Yem oziqalar ko'p bo'lsa tez yetishadi. Lekin o'smay qoladi.

Rasionda 27-38 % xajmli oziqalar bo'lsa, yosh mollar uni tarkibidagi oqsil moddalarni yaxshi sintez qiladi, oshqozon - ichak sistemasi yaxshi o'sadi, yem oziqalar kam bo'lsa tez yetishadi, yaxshi o'sadi.

41. Jinsni go'sht mahsuldorligiga va sifatiga ta'siri

1,5 yoshgacha bo'lgan urg'ochi tanalarni go'shti sifatli va ingichka tolali bo'ladi. Qarri sigir va buqalarda buni aksi bo'ladi. Buqachalar ho'kizchalarga nisbatan 5-10 % tez o'sadi

1,5 yoshgacha bo'lgan urg'ochi tanalarni go'shti sifatoiz va qalin tolali bo'ladi. Qarri sigir va buqachalarda buni aksi bo'ladi. Buqachalar ularga nisbatan 1-1,1 % tez o'sadi.

1,5 yoshgacha bo'lgan urg'ochi tanalarni go'shti sifatli va ingichka tolali bo'ladi. Qarri sigir va buqachalarda xam shunday bo'ladi. Buqachalar ularga nisbatan 5-10 % kam usadi

1,5 yoshgacha bo'lgan urg'ochi tanani go'shti sifatli va ingichka tolali bo'ladi. Qarri sigir va buqalarda xam shunday bo'ladi. Buqachalar ularga nisbatan 50 - 60 % tez o'sadi.

42. Saqlash sharoitini go'sht mahsuldorligiga ta'siri.

Yopiq molxonalarda va turli tipdagi bo'rdoqilash maydonchalarida o'stiriladi. Eng yaxshisi maydonchada yetiltirib, yopiq xonada bog'lab bo'rdoqilash hisoblanadi.

Yopiq molxonada va turli tipdagi bo'rdoqilash maydonchalarida o'stiriladi. Eng yaxshisi maydonchada ustirib, molxonada bog'lamasdan bo'rdoqilashdir.

Ochiq molxonada va turli tipdagi bo'rdoqilash maydonchalarida o'stiriladi. Eng yaxshisi binoda o'stirib, maydonchada bog'lab bo'rdoqilashdir.

Ochik maydonda va turli tipdagi bo'rdoqilash maydonchalarida o'stiriladi. Maydonchada bo'rdoqilashda go'shti dag'al bo'ladi. Eng yaxshisi bog'lamasdan (6-8) bo'rdoqilash kerak.

43.Qoramol nimtalarini navlarga bo'lib chopish

Qoramol go'shti 12 qismga, buzoq go'shti 9 qismga bo'lib chopiladi. Qoramol go'shti 3 navga bo'linadi. Birinchi, ikkinchi va uchinchi.

Qoramol go'shti 10 qismga, buzoq go'shti 9 qismga bo'linadi. Qoramol go'shti 4 navga bo'linadi.

Qoramol go'shti 14 bo'lakga, buzoq go'shti 12 qismga bo'lib, chopiladi. Qoramol go'shti 5 navga bo'linadi.

Qoramol go'shti 12 qismga, buzoq go'shti 10 qismga bo'lib chopiladi. Qoramol go'shti 3 navga bo'linadi.

44. Qoramol zotlarini urchitish bo'yicha O'zbekiston mintaqalari.

Sug'oriladigan mintaq, lalmikor dehqonchilik mintaqasi, shahar atrofi mintaqasi.

Sug'oriladigan mintaq, lalmikor dehqonchilik mintaqasi, saxro mintaqasi (qoramollar urchitilmaydi).

Sug'oriladigan mintaq, shahar atrofi mintaqasi, saxro mintaqasi (go'sht yo'nalishidagi zotlar).

Lalmikor dehqonchilik mintaqasi, shahar atrofi mintaqasi, saxro mintaqasi (go'sht yo'nalishidagi zotlar).

45.Gollandiya zoti.

Gollandiyada XVIII asrda xalq seleksiyasi natijasida yaratilgan. Sut yo'nalishida, tusi qora-ola. Konstitusiyasi mustahkam. Sigirlarini tirik vazni 550 kg, buqalariniki 900 kg.

Gollandiyada X asrda Van Gog tamonidan yaratilgan sut yo'nalishida, tusi qora-ola. Konstitusiyasi mustahkam. Sigirlarni tirik vazni 550 kg, buqalariniki 800 kg.

Gollandiyada XIX asrda xalq seleksiyasi natijasida yaratilgan. Go'sht yo'nalishida, tusi qora-ola. Konstitusiyasi mustahkam. Sigirlarni tirik vazni 550 kg, buqalari 900 kg.

Gollandiyada XX asrda xalq seleksion natijasida yaratilgan. Sut yo'nalishida, tusi qora-ola. Konstitusiyasi mustahkam. Sigirlarni tirik vazni 350 kg, buqalari 500 kg.

46. Golshtin zoti.

Golland zoti bilan AQShda yangicha seleksiya ishlarini olib borish natijasida yaratilgan. Konstitusiyasi mustahkam. Sut yo'nalishida, tusi qora-ola va qizil - ola.

Golland zotini janubiy Amerikada yangicha seleksiyada takomillashtirish natijasida yaratilgan. Konstitusiyasi mustahkam. Sut yo'nalishida tusi qora-ola, qizil-ola.

Golland zotini AQShda maxalliy zebu, charbrey, zotlarini chatishtirish yo'li bilan yaratilgan. Sut yo'nalishida, tusi qora, qizil.

Golland zotini AKShda yangicha seleksiyada chatishtirish bilan yaratilgan. Sut-go'sht yo'nalishida, tusi qizil, sariq.

47. Qora-ola zoti

1959 yil o'rta rus, Sibir va Ural mahalliy qora mollarini Gollandiya zoti bilan chatishtirish natijasida yaratilgan. Sut yo'nalishida. Tusi qora-ola. Konstitusiyasi mustahkam.

1959 yil Qozoq, Qolmiq va Ural mahalliy qora mollarini angler zoti bilan chatishtirib yaratilgan. Sut-go'sht yo'nalishida. Tusi qora-ola. Konstitusiyasi mustahkam.

1959 yilda O'rta rus, Sibir va Ural mahalliy mollarini Simmental zoti bilan chatishtirib yaratilgan. Sut yo'nalishida, tusi qora-ola. Konstitusiyasi mustahkam.

1959 y o'rta rus, Sibir va Ural mahalliy mollarini Gollandiya zoti bilan chatishtirib yaratilgan. Go'sht yo'nalishida. Tusi qora-ola. Konstitusiyasi nozik.

48. Qizil cho'l zoti

XIX asrda Ukrainani dasht xududlarida mahalliy mollarni nemislarni ostfrisland zoti bilan chatishtirish natijasida keltirib chikarilgan. Tusi qizil. Sut yo'nalishida. Konstitusiyasi mustahkam.

X asrda Ukraina dashtida mahalliy mollarni fransuzlarni frizland, manaptu zotlari bilan chatishtirib yaratilgan. Tusi qizil. Sut yo'nalishida, konstitusiyasi mustahkam

XX asrda Ukrainani tog'li xududlarida mahalliy mollarni Gollandiya, qora-ola zotlari bilan chatishtirib yaratilgan. Tusi qora. Sut yo'nalishida.

XIX asrda Ukrainani ko'k Ukraina zotini Kian, Shortgorn zotlari bilan chatishtirib yaratilgan. Tusi qizil, sut yo'nalishida. Konstitusiyasi bo'sh.

49. Bushuyev zoti

Mirzacho'lda zebusimon qoramollarni Gollandiya, Shvis, Simmental, Ostfriz zotlari bilan chatishtirib 1968 yil yaratilgan. Sut yo'nalishida. Oq suvsar tusida, tanasini oq tusli qismida qora va qizil dog'lari bor.

Mirzacho'lda zebusimon qoramollarni Gollandiya, Shvis, Qizil cho'l, Kian zotlari bilan chatishtirib 1948 yil yaratilgan. Sut yo'nalishida. Oq suvsar tusida tanasini oq tusli qora-ola va qizil dog'lari bor.

Mirzacho'lda zebusimon qoramollarni Qizil tambov, Gorbato, Simmental va Shvis zotlari bilan chatishtirib yaratilgan. Sut-go'sht yo'nalishida. Qizil tusda bo'lib, tanasini oq qismida qora dog'lari bor.

Sirdaryoda mahalliy qoramollarni qizil cho'l zoti bilan chatishtirib yaratilgan. Sut yo'nalishida tusi oq.

50. Shvis zebusimon mollarni tarqalishi, mahsuldorlik ko'rsatkichlari

Sigirlari 350-450 kg, buqalari 700-750 kg. Sut mahsuldorligi 2500-2700kg, sutini yog'i 4,2 %, oqsili 3,8 %. So'yim chiqimi 50-55 % tusi qo'ng'ir.

Sigirlari 270-280 kg, buqalari 600-610 kg. Sut mahsuldorligi 3500-4700. Sutini yog'i 4,2, oqsili 3,8 %. So'yim chiqimi 50-55 %. Tusi qora.

Sigirlari 350-450 kg. buqalari 700 kg. Sut mahsuldorligi 4000-6000kg. Sutini yog'i 6 %, oqsili 2 %. So'yim chiqimi 50-55 %. Tusi qora.

Sigirlari 350-450 kg, buqalari 700-750 kg. Sut mahsuldorligi 2500-2700 kg. Sutini yog'i 4,0 %, Oqsili 3,8 % So'yim chiqimi 65-66 % Tusi qora-ola.

51. Qalmoqi zoti

Sigirlari 420-500 kg, buqalari 750-850 kg. Buzoqlari 8 oylikda (ajratish davrida) 200-220 kg. Yaylovda bir kunda 850-1000 g o'sadi, so'yim chiqimi 60-68 %. Genofondi 450 ming bosh.

Sigirlari 750-800 kg, buqalari 1000-1400 kg. Buzoqlari 8 oyda (ajratish davrida) 200-220 kg. Yaylovda bir kunda 850-1000 g o'sadi, so'yim chiqimi 60-65 % Genofondi 450000 bosh.

Sigirlari 420-500 kg, buqalari 750-850 kg. Buzoqlari 8 oyda (ajratish davrida) 400 kg. Yaylovda kuniga 300-450 g o'sadi. So'yim chiqimi 60-68 % Genofondi 450000 bosh

Sigirlari 420-500 kg.buqalari 750-850 kg.Buzoqlari 8 oyda (onasidan ajratish) 200-220 kg. Yaylovda 850-1000 g o'sadi. So'yim chiqimi 42-48 % Genofondi 10 mln bosh.

52. Qozoqi oq bosh zoti

Qozog'istonda va Rossiyani janubiy sharqida mahalliy mollarni Gereford zoti bilan chatishtirib 1950 yilda yaratildi. Go'sht yo'nalishida.Konstitusiyasi pishiq.Tusi qizil yoki qora.

Qozog'istonda va Rossiyani shimolida qora-ola zotni gereford zoti bilan chatishtirib 1950 yilda yaratilgan. Go'sht yo'nalishida.Konstitusiyasi pishiq.Tusi qizil yoki qora.

Qozog'istonda va Rossiyani shimolida mahalliy mollarga santa-gertruda zoti bilan chatishtirib 1950 yil yaratilgan. Go'sht yo'nalishida.Konstitusiyasi pishiq.Tusi qizil yoki qora

Qozog'istonda va Rossiyani janubida mahalliy mollarni gereford zoti bilan chatishtirilib 1932 yil yaratilgan. Sut yo'nalishida.Konstitusiyasi bo'sh.Tusi qora-ola.

51.Santa- Gertruda zoti

1940 yil AQShda mahalliy Longxolin moli bilan hind zebusini,so'ng Shortgorn zoti bilan chatishtirib yaratilgan. Go'sht yo'nalishida.Tusi qizil.

